Boshkarishning integratsiya konuni. Bu ob'ektiv konun bulib, boshkarish barcha boshkaruvchi xodimlar faoliyatini integratsiyasi asosida amalga oshirishni kursatadi. Bunday extiyoj ishlab chikarish va boshkarishga ulgan talabdan kelib chikadi va amalga oshiriladi.

Boshkarishning integratsiyasi uning kuyidagi tarkibiy kismlari yordamida namoyon buladi:

1. maksad – boshkarishning integratsion omil sifati;
2. boshkarish mexanizmi – balanslashgan usuli va boshkarish jarayoni sifatida;
3. Strukturaviy bulinmalar va ularning fuknsiyalarini muvofiklashtirish sifatida;
4. Axborotlar bilan ta'minlash - boshkarish bulinmalari urtasida boglash sifatida.

Boshkarishning markazlashtirish konuni. Bu konun markazdan va kuyidagi boshkarishning optimal (eng kulay) variantini topishni talab etadi.

Bu konun bir tomondan markazdan, ya'ni yukoridan pastga, ikkinchi tomondan pastdan yukoriga boshkarish jarayonini uzida aks ettiradi.

Boshkarishning ob'ektiv tizimi markazlashtirilgan shaklda buladi. Masalan, biologiyada birinchi tizim faoliyat kursatishi uchun markaz, ya'ni miya ishlashi kerak. Markazgi boshkarishning markazi – bu ma'muriy kengash, firma boshligi, prezidenti va xokazolar.

Korxonani boshkarishda, muxim karorlar kabul kilishda vakillikning aksariyat kismini uz zimmasiga oladigan boshkaruv tizimi markazlashgan boshkaruv deb ataladi.

Korxonani boshkarish kafolatlari asosan kuyi boshkaruv organlariga berilgan bulsa buni markazlashmagan boshkaruv deyiladi.

Markazlashgan boshkaruvning afzalliklari.

1. Ixtisoslashgan boshkaruv xizmati faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat kilish imkoni tugiladi.
2. Xarokatning yagona kelishilgan tartibi ta'minlanadi.

3. Boshkarish mexnati bilim va tajribadan unumliroq foydalanish imkonini beradi.

Kuyidan boshkarish afzalliklari.

1. Muammoni yaxshirok biladigan raxbar tonidan karor kabul kilish imkoni tugiladi.

2. Kata korxonalarini axborotlar xajmi kupligi sababli boshkarish kiyin. Boshkarish karorlarini ishlab chikish kiynlashadi.

3. Kuyidagi boshkarish raxbarlik lavozimidagi shaxsning mas'uliyatini oshiradi, uziga nisbatan talabchanlik kuchayadi va uz ish joyida mustaxkam bulish imkonini beradi.

Kuyidan boshkarish jarayonini chukur anglab etishning ob'ektiv omili sifatida boshkaruvning barcha buginlarida keng kullanilishi lozim. Bu omillar dastlab xavf-xatar, kolaversa mas'uliyat, topkirlik, erkin va mustakillik, uzining kadriga etishdir.

Demokratizatsiyalash konuni. Boshkarish samaradorligi odamlar manfaatiga mos tushadigan bulganda ta'minlanishi mumkin. Manfaatdor xar bir shaxs, boshkaruv xodimi mexnat jamoasi uchun xos bulgan jarayon xisoblanadi. Bu esa boshkarish jarayonini nafakat malakali, kolaversa demokratikbulganda ta'minlanadi. Bu konun moxiyatiga kura jamoada odamlarning bir-biriga bulgan uzaro munosabatini aks ettiradi, ya'ni raxbar va buysunuvchilar urtasidagi uzaro alokani aks ettiradi. Bu jarayon mexnat jamoalariga mulkni aksiyalash kurinishida beri shorkali amalga oshiriladi.

Bozor iktisodi sharoitida demokratiya konuni ob'ektiv konun xisoblanadi.

Vakt konuni (boshkarishning vakti iktisod kilish konuni). Bu bozor iktisodiyotining muxim konunidir. Vakt iktisodiy kategoriya bulib, uning kadr-kimmati korxona faoliyatining barcha tomonlarini uz ichiga kamrab oladi: ishlab chikarish tezligi; aylanma kapital oboroti; uzgarishga munosabat; mexnat unumdorligi; mexnat kurollaridan foydalanish xarajatlari (amortizatsiya, solik) va boshkalaryu Vakti yuritish uz rakobatchilarini vaktan yutish, YAngi maxsulotni ishlab chikarishga tezrok utish va boshkalar.

Bozor iktisodietining boshkarish prinsiplari.

Prinsip – bu boshkarish koidalari bulib, raxbar xodimlar uz faoliyatini amalga oshirishda unga amal kiladilar. Boshkarish prinsipi raxbar xodimlar faoliyatini tartibga soladi va yul-yurik kursatib turadi.

Boshkarish prinsiplari boshkarish konunlari va konuniyatlaridan kelib chikadi va konunlarni tushunish, anglab etish va boshkarish organlarining Amaliy faoliyatini uzida aks ettiradi, anikrogi boshkarish prinsiplari boshkarish konunlari va konuniyatlaridan okilona foydalanish vositasi xisoblanadi. Boshkarish prinsiplari jamiyatdagi xukmron ishlab chikarish munosabatlaridan kelib chikadi va unga amal kiladi.

Bozor iktisodiyotining uziga xos ilmiy prinsiplari quyidagilar: barcha mulkka egalik xususiyati, tadbirkorlik faoliyatini tanlashda va faoliyat kursatishda erkinlik, mustakillik, mulkni davlat tomonidan ximoya kilinishi. Bu va boshka shunga uxshash prinsiplar bozor iktisodiyotini boshkarishning uziga xos prinsiplarini tashkil etadi.

Iktisodiyotni boshkarish prinsiplarini uch guruxga bulish mumkin. Birnchi guruxga ishlab chikarishning umumiy va strukturaviy funksional prinsiplari kiradi. Ikkinchi guruxga jamoa a'zolarining uzaro munosabatlari (odamlarni boshkarish) prinsipi kiradi. Uchinchi guruxga menejer ya'ni raxbar xodimning shaxs sifatida shakllanishi kiradi.

Birinchi guruxga korxonaning foydalilik darajasi, marketing faoliyati, tashkiliy struktura, rejalashtirish, boshkarish usullari kiradi. Bu guruxga korxonaning samarali faoliyat kursatishi, mexnatni ilmiy tashkil etish, komp'yuter bilan ta'minlanishi innovatsiya va strukturaviy tuzilishi kiradi.

YUkorida kayd etilgan prinsiplar mazmunini taxlil etish bozor iktisodiyotini boshkarishning uziga xos xususiyatlarini eks ettiradi. Agar ilgari foydalilik kursatkichi maxsulot mikdori yoki xajmi bilan aniklangan bulsa, xozirgi paytda maxsulot sifati unga bulgan talab Bilan aniklanadi.

Ikkinchi gurux prinsiplari odamlarning bir-biriga bulgan munosabatlarini, raxbar xodimlar va mexnat jamoa a'zolari urtasidagi munosabatlarni uzida aks ettiradi. Insonga bulgan munosabat boshkarishning asosini tashkil etadi.

Uchinchi gurux prinsiplari menejer yoki raxbarning shaxs sifatida shakllanishidir. Bu prinsip yukorida kurib chikilgan ikkita gurux prinsiplariga faol amal kilishning bazasi xisoblanadi. SHuning uchun bu prinsip kata ijtimoiy – pedagogik yukni uz zimmasiga oladi. Boshkarish ta'sirchanligi, ishlab chikarish samaradorligi, yangilikning joriy etilishi, maxsulotni sotish uchun kurash, boshkarishning insoniyligi va boshkalarini yaxshi tayyorgarlikdan utgan boshkaruvchi raxbarsiz tasavvur etish kiyin.

Bu erda etakchi prinsiplar quyidagilar xisoblanadi:

–menejer – raxbarlarni maksadga muvofik ravishda tarbiyalash va kayta tarbiyalash.

–menejer kadrlarni tayyorlash va kayta tayyorlash.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi

Boshkarishning funksiyalari boshkarishning tashkiliy strukturasi Bilan uzviy boglangan buladi. Bu erda muxim va aloxida axamiyatga ega bulgan prinsip mexnatning ratsional taksimoti xisoblanadi. Bu prinsip tashkiliy strukturani ajralmas tarkibiy kismi sifatida ishlab chikarishning asosini tashkil etadi. Aynan manna shu prinsipni xisobga olish maksadga erishishning asosini tashkil etadi.

Maksad esa yangi tashkiliy strukturani ishlab chikish va uning afzalligini iqtisodiy nuqtai nazardan baxolashdir. Yangi tashkiliy struktura ratsional bulishi va mavjud tashkiliy strukturaga nisbatan samarali va istikbolli bulishi lozim.

Xakikatda xam boshkarishning tashkiliy strukturasi doimo uzgarib turishi kerak. Buning uchun boshkaruvchi tizim mavjud uzgarishlarni uz vaktida idrok etishi va tashkiliy strukturaning davr talabiga javob berishini baxolashi, tegishli uzgarishlarni kiritishi lozim.

Boshkarishdan asosiy maksad ishlab chikarish samaradorligini oshirish ekan, shunga mos ravishda tashkiliy struktura xam vakti vakti bilan kayta kurib chikilishi lozim.

Tashkiliy strukturaning nazariy va metodologik tabiatini bilish uchun unga kuyilgan talablarni, ya'ni tashkiliy bulinmalar urtasidagi uzaro ta'sirning anikligi, boshkarish funksiyasini takrorlanmasligi, boshkarish apparati odimlari urtasidagi mas'uliyatni anik taksimlanganligi, qarorlar kabul kilish jarayonining ishlab chikilishi, aborotlar okimini tashkil etishning anikligi, boshkarishda funksiyalarning tarkok emasligi, texnik vositalardan maksimal foydalanish imkoniyatlari chukur taxlil kilinishi lozim.

Ishlab chikarishni boshkarishda xar xil tashkiliy strukturalar kullaniladi. Suv xujaligi, anikrogi suv xajaligi kurulishini boshkarishda eng kup tizim chizikli-funksional tizim xisoblanadi. Uni ishlab chikish uchun kuyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- korxonada, UK va birlashmalarda bajariladigan funksiyaning ratsional markazlashganlik darajasini aniklash;
- loyixalashtirilgan tashkiliy strukturaning suv kurulishi yoki eksplatatsion tashkilot faoliyatining mazmuniga mos kelishini xisobga olish;
- boshkarishning markazlashgan funksiyalarini aniklash;
- boshkarishning yangi yoki kayta tashkil etilgan tashkiliy strukturasi suv xujaligi kurulishi va eksplatatsion tashkilotlarda saklanib koladigan boshkarish funksiyalari buyicha bajariladigan ishlar (xizmatlar) ruyxati va xajmini aniklash;
- yangi yoki kayta tashkil etilgan tashkiliy strukturasi bulinmalarda boshkarish faoliyatlari buyicha bajariladigan ishlarning tarkibini aniklash;
- boshkarishni markazlashtirish natijasida boshkarish apparati xodimlari uchun sarf kilinadigan mexnat va moddiy – pul xarajatlarini kamaytirish;
- davr talabidan kelib chikkan xolda boshkarish strukturasi tarkibiga kiradigan strukturaviy bulinmalarni aniklash;

– mavjud tashkiliy strukturaning kamchiliklarini aniklash, boshkarish buginlarini, ixtisoslashtirish omilini va ilgor namuna buladigan suv xujaligi tashkilotlarining tashkiliy strukturasi xisobga olish.

Albatta loyixalashtirilayotgan xamda mavjud tashkiliy struktura takkoslanadi va xar ikkalasiga baxo beriladi. Baxolash usullari kup. Ularga, xis etish usuli, sintez va analiz usuli, takkkoslash usuli va boshkalar kiradi.

Suv xujaligi kurulishini boshkarish organlari tizimining samaradorligi kupincha tashkiliy strukturaning takomillashuviga boglik buladi.

Boshkarishning tashkiliy strukturasi xar xil va uzaro bir-biri Bilan boglik bulgan boshkarish buginlarining, tashkiliy tuzilmasi yigindisidan tashkil topgan bulib, boshkarish funksiyasi va vazifalarini bajarishga muljallangan buladi.

Boshkarish strukturasi shtatlar ruyxatida, raxbarlar urtasida funksiyalarni taksimlashda uzining anik ifodasini topadi. Boshkarish strukturasi gorizontal buyicha boshkarish buginlariga (gurux va bumlarga), vertikal buyicha boshkarish boskichlariga bulinadi. Boshkarish buginlari bu mustakil funksional boshkarish organi yoki ijrochi bulib, bevosita boshlikka yoki tegishli boskich muoviniga buysinadi.

Boshkarish boskichlari pastdan yukoriga karab boshkarish organlarining buysinishini uzida aks ettiradi. Suv va kishlok xujaligi faoliyatining uzaga xos tomoni shundaki, bu erda boshkarish nafakat suv kurulishi tashkilotlarida, kolaversa yirik xujalikaro sugorish tizimini ekspluatatsiya kilishda, davlat meliorativ inshootlarida, suv resurslaridan foydalanishda va uni muxofaza kilishda, kishlok xujaligini boshkarishda bevosita ishtirok etadi.

Suv xujaligi kurulishida eng kup tarkalgan boshkarish boskichlari bosh boshkarma va boshkarmalardir. Bosh boshkarma tarkibiga kurulish – montaj korxonalari, sanoat, loyixaviy – texnologik tashkilotlar kiradi. Bosh boshkarma xujalik xisobidagi tashkilot Buli, u bevosita buysunuvchi tashkilotlar va korxonalar tomonidan ajratilgan moliyaviy mablaglar xisobiga faoliyat kursatadi.

Bosh boshkarmani Kishlok va Suv xujaligi vazirligi tomonidan tayinlanadigan boshlik boshkaradi. Kengash organi xay'at xisoblanadi. Uning tarkibini bosh boshkarma boshliklari taklifi asosida vazir tayinlanadi. Boshkarishda doimiy xizmat kursatuvchi ishlab chikarish kengashi va ilmiy-texnika kengashi faoliyat kursatadi.

Bosh boshkarmaning asosiy vazifasi boshkarma tugrisidagi nizomda atroflicha yoritilgan. Boshkarma kurili shva boshka turdagi ishlarni bajarish bilan shugullanadi. Boshkarma ishlab chikarish fondlaridan, mexnat, moddiy-moliyaviy resurslardan, samarali foydalanish rejasining bajarilishini ta'minlaydi. U uz vaktida ishlab chikarish kuvvatlari va asosiy fondlardan foydalanish, xujalik va moliyaviy faoliyat, ilmiy-texnikayutuklarini joriy etish, ilgor tajriba, YAngi texnika va

kurilish materiallarini kullash, ishlab chikarish texnologiyasini takomillashtirish uchun mas'ul xisoblanadi.

Aksariyat bosh boshkarma va boshkarmalar tarkibiga asosiy bugin sifatida kurilish korxonolari kiradi. Ular xujalik xisobi asosida ishlaydi. Korxonalar apparati unga bevosita buysunuvchi tashkilotlar va korxonalar xisobiga faoliyat kursatadi. Korxonalar bajaradigan ish xajmiga karab raxbarlar va injener-texnik xodimlar uchun ish xaki tulash guruxlariga bulinadi. Korxonalar strukturasi mos boshkarish xodimlari uchun belgilangan ish xaki, namunaviy shtatlar va unga mos odimlar ruyxati; soni va xodimning lavozimi ish xaki kurinishida aniklanadi.

Korxonaning asosiy vazifasi bosh mintakaviy boshkarma (birlashma) vazifalaridan kelib chikkan xolda korxonaning ixtisoslashuvi va mintakaviy xizmatlarini xisobga olib aniklanadi. SHu bilan birga ixtisoslashgan korxonalar keng miqyosdagi vazifalarni bajaradi. Anikrogi ular koidaga kura shartnomalar (bajariladigan ishlar buyicha texnik xujjatlarni kurib chikadi va unga uz roziligi bildiradi, ishlab chikarishni rejalashtiradi, moddiy-texnika ta'minotini, xisob-kitobni, kurilishni kadrlar bilan ta'minlash ishlarini olib boradi. Kelajakda korxonalar xujalik xisobida faoliyat kursatuvchi yirik kuyi ishlab chikarish bulinmalariga, kudratli texnik va iktisodiy boshkarish buginiga aylanishi mumkin.

Xozirgi paytda eng kup tarkalgan kuyi bugin boshkaruv tashkilotlarining unitar korxonolari (UK) xisoblanadi. Keyingi yillarda korxonalar tarkibiga kiruvchi UK, KMB (kurilish-montaj boshkarmalari) roli uzgarmokda. Bajariladigan funksiyasi buyicha ular kuproq xujalik xisobidagi ishlab chikarish korxonalariga aylanmokda va kurilish ishlarini korxonaga karashli ob'ektlarda olib bormokda. SHu bilan birga shunday UKlar borki., ular korxonadan ancha uzokda joylashgan bulib, kata xajmdagi kurilish ishlarini olib boadi. Ular anikrogi korxonalarining funksiyasini bajarmokda bular xammasi boshkarishning tashkiliy strukturasi takomillashtirish va oralik boshkaruv buginlarini kiskartirishni takozo etmokda.

Kup boskichli boshkaruv strukturasi boshkarishning iktisodiy usulidan tularok foydalanishga xalakt beradi, chunki ishlab chikarish korxonasi xukukiga fakat UK, KMB yoki korxonalar egadir. YUKori boshkaruv buginlari esa rasmiy xujalik xisobidagi tashkilotlar bulib, asosan ma'muriy boshkaruv asosida uzlarining ish faoliyatini yuritadi. Bu uz navbvtida kuyi boskichni boshkarish samaradorligini kamayishiga olib keladi. SHu bilan birga kup boskichli boshkaruv operativ raxbarlikni susaytiradi, topshirik, buyruklarni bajarilishini nazorat kilishni kiyinlashtiradi.

Kup boskichli boshkaruv funksiyasining takrorlanishi kup sonli boshkaruv apparatini saklab turishga olib keladi. Xar bir boshkaruv boskichida kushmcha axborotlar, buyruklar, kursatmalar paydo buladi, ma'lumotlar xarakati sekinlashadi. Bu esa pirovard natijada uz vaktida kerakli karorlar kabul kilishni kiyinlashtiradi.

Tashkiliy strukturani takomillashtirish zaruriyati kurilish tashkilotlarini bozor iktisodiga utishi munosabati bilan yanada dolzarb bulib kolmokda.

Tarmokni boshkarish tashkiliy strukturaning takomillashuvi bilan birgalikda kurilish tashkilotlarining kuyi buginlarida ichki xujalk tashkiliy strukturasi xam yaxshilanib bormogi lozim. Xozirgi paytda asosiy kurilish bulinmalari (birinchi boshkaruv boskichi) ishlab chikarish uchastkalari xisoblanadi. Bu bulinmalar bajariladigan ish xajmi va ob'ektlarning mintakaviy joylashishiga karab tashkil etiladi. Uchastkalar sugorish, texnik, madaniy va boshka belgilari bilan ixtisoslashadi xamda ularning ish xajmi texnik vositalar va ishlovchi xodimlar soni bilan aniklanadi.

Uchastkani kata ish yurituvchi (prorab) boshkaradi. Uning ixtiyorida prorab va master buladi. Xujalik xisobida bulmagan uchastkada maxsus ishni uchastka mexanigi, normallashtiruvchi xodim, injener – iktisodchi, katta buxgalter, buxgalter-xisobchi xamda omborchi, texnik geodezist, chizmachil bajaradi.

UKda ikkinchi ichki xujalik strukturasi boshkarish boskichiga uchastka ish yurituvchisi (prorab) kiradi.

Uchinchi boskichga uchastka masterlari kiradi. Ular kurilish-montaj va umumkurilish ishlarini bajarishda – 25 ishchi, maxsus ishlarda – 20 ishchi xisobida aniklanadi.

Kurilish masterlari brigadalar uchu nish joylarini tashkil etadi, ishlarni bajarish buyicha naryadlar beradi va uni yopadi, materiallarni, ish kurollarini xisobdan chikaradi, ish sifatini, ishlab chikarish intizomini va texnik xavfsizligi ishlarini nazorat kiladi. Masterning mas'uliyati, xukuki va vazifalari master tugrisidagi nizomda kursatilgan.

Turtinchi boskich – brigada (kompleks, ixtisoslashgan). Brigadani brigadir boshkaradi. Ular brigada a'zolarining mexnatini tashkil etadi, ishning bajarilishi sifatini nazorat kiladi va loyixa - smeta xujjatlari asosida ishning bajarilishini ta'minlaydi. Brigadir barcha ishlab chikarish, iktisodiy-ijtimoiy masalalarni echishda master bilan birga ishtirok etish xukukiga egadir. Brigadir kursatmasini ishchi bajarishi kerak. Ishni bajarish shart – sharoitdan va uziga xos xususiyatidan kelib chikkan xolda brigada zvenolarga bulinishi mumkin.

UK va KMBlarining ichki tashkiliy strukturasi bir biridan fark kiladi. Sugorish mintakalarida ikki, uch, xatto turt boskichli boshkarish strukturasi mavjuddir. Asosiy prinsip albatta ichki xujalik tashkiliy strukturasi imkoni boricha boshkarish boskichlari, kam funksiyalar tartibga tushirilgan anik boshkaruv apparati bulmogi lozim. SHu bilan birga ratsional tegishli struktura xar xil bosikhdagi raxbar xodimlari urtasidagi eng samarali alokalar urnatish imkonini bermogi lozim. Xususan, tashkilot raxbarlari xamda uchastka boshliklari urtasida alokalar samarali boshkarishni ta'minlamogi lozim.

Boshkarishning tashkiliy struktura turkumlari.

Boshkarishning xar bir boskichi samarasi UK va KMBlari strukturasi, anikrogi tashkilot raxbarlari, bulim boshligi va boshka bulinmalar urtasidagi alokalar boglikdir. Kurilish tashkilotlari tashkiliy strukturasi sxematik ravishda kurinishi tasvirlash uni yakko rok tasavvur etish imkonini beradi. U umuman olganda tashkiliy strukturani xar bir raxbar bilishi kerak, bu boshkarishning eng kulay shaklini tanlash va ishlab chikish, bulinmalar urtasida boshkaruv funksiyalarini anik taksimlash imkonini beradi. UK va korxonaning tashkiliy strukturasi mavjud va loyixalashtirilgan kurinishda buladi. Xar birini xar xil boskichlarda, masalan xujalik bulinmalari, bosh boshkarmalar, korxonona buyicha u yoki bu boshkaruv boskichlarida tuzish mumkin.

Mavjud tashkiliy strukturani grafik kurinishida tasvirlash bulinmalar urtasidagi alokalar kandy tashkil etilganligini kursatadi. Agar taxlil natijasida aniklangan alokalar ba'zi bir funksiyalar alokadorligini ta'minlay olmasa yoki talab darajasida tashkil etilmagan bulsa ratsional tashkiliy struktura ishlab chikiladi. Bu struktura bulinmalar urtasidagi funksiyalar alokadorligini ta'minlaydi va eng kam sonli boshkaruv apparatiga ega bulish imkonini beradi.

Tashkiliy strukturani xakikiy tassavvur eti shva uni takomillashtirish uchun tashkiliy struktura turkumlarini bilish lozim. Bunga chizikli va chizikli-shtabli, chizikli-funksional boshkarish strukturasi kiradi. Eng kup tarkalgan tashkiliy struktura chizikli tashkiliy struktura xisoblanadi. Bu strukturaning moxiyati shundan iboratki, bulim va unda faoliyat kursatuvchi xodimlar bita raxbarga buysinadi. CHizikli boshkarish, masalan korxonona buyicha kuyidagicha boshkariladi: korxonona boshligi – bosh injener – bulim boshligi – injener. Bu strukturada yakka xokimlik prinsipi amal kiladi va barcha xodimlar bajaradigan ishlari buyicha uzining raxbaridan kursatma yoki topshirik oladi.

CHizikli tashkiliy struktura oddiy tashkiliy elementlardan tashkil topgan bulib, uni kullash oson. Aloka yullri juda kiska va etarli darajada samarali buladi. CHunki raxbarlar tezda kerakli ma'lumotni olish va tegishli kursatmalarni berishi mumkin. Bu mazkur tashkiliy strukturaning egiluvchanligini ta'minlaydi. CHizikli boshkarish strukturasi 6-chizmada keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, boshkarishning chizikli strukturasi raxbardan xar tomonlama chukur bilimni, tajribani talab etadi. u chizikli strukturadan foydalanish imkoniyatini cheklab kuyadi. SHu sababli bu boshkarish strukturasi sof aloxida korxonona, UKlardan kam kullaniladi. Lekin korxonona va UK bulimlarida va bulinmalarida undan foydalanish mumkin.

Boshkarish funksiyasining ixtisoslashuvi, rejalashtirish, moliyalashtirish, texnologik tayyorgarlik va ularning murakkablashuvi tashkiliy struktura – turkumlarini takomillashtirishni talab kiladi. Suv xujaligini boshkarishning ma'lum boskichida boshkarishning funksional strukturasi paydo buldi. Uning moxiyati shundan iboratki, bulim, labratoriya va boshkalar uz ixtisosligi buyicha keng

boshkarish xukukiga ega buladi. Xar bir bulinma boshkarishning kuyi boskichiga kursatmani uzi beradi. Masalan, UK boshligi uchastka boshligiga topshiriklarni uzi beradi. Bulim boshliklari barcha karorlarni UK boshligi bilan kelishib olishi shart emas. SHuning uchun xujjatlar, karorlar, kursatmalar ijrochiga tezda etib boradi. Lekin boshkarishning bu tashkiliy strukturasi yakka xokimlik prinsipini realizatsiya kilish kiynlashadi, chunki uchastkada faoliyat kursatayotgan xodim bir yula bir necha raxbardan kursatma olishi mumkin. Bu kursatmalar bulim boshliklari bilan kelishilgan bulishi mumkin. Bu uz navbatida kuyi bugin raxbarlarining ishni bajarishda mas'uliyatini susaytiradi, xususan uchastka boshliklarini shu munosabat bilan funksional strukturani aloxida kullash kam samara beradi.

CHizikli va funksional boshkarish strukturasi kullash chizikli – shtabli, chizikli – funksional boshkarish strukturasi paydo bulishiga olib keladi. Bu struktura suv xujaligi kurilishi tashkilotlarida kullaniladi. Masalan, korxonada kuyi bugin fakat asosiy raxbar kursatmalari asosida boshkariladi, ya'ni korxonada boshligi – UK boshligi – uchastka boshligi. CHizikli – shtabli boshkarishning xar bir boskichida (korxonada – UK – uchastka) mas'uliyatli raxbardan tashkari maxsus funksiyalarni (rejalashtirish, iktisodiy texnik, xisob – kitob bulinmalari) bajarish uchun maxsus bulimlar eki mutaxassilar guruxi tashkil etiladi. CHizikli – shtabli strukturada oxirgi natija uchun xujalik raxbari javob beradi. Bulim boshliklari fakat UK boshligi ruxsati bilan, buyrukni, kursatma va topshiriklarni, me'yoriy xujjatlari ijrochiga etkazadi. Ular UK boshligi oldiga rejani, yuriknomani, texnologik xujjatlarni ishlab chikish va uning sifati uchun javob beradi. CHizikli – shtabli tashkiliy strukturaning afzalligi xam shundadir. Bu strukturaning tuzilish prinsipi 6-chizmada berilgan.

Amaliyot shundan dalolat beradiki, chizikli – shtabli struktura kupincha kata UKlarda, korxonalarda va boshkarmalarda kullaniladi. Lekin bu tashkiliy tsrukturaning kamchiligi xam bor. Kupgina funksional bulimlar, labratoriyalarni tuzish boshkarish apparati xdimlar kupayishiga, boshkarish uchun sarf kilinadigan xarajatlarning kupayishiga olib keladi. Eng takomillashgan tashkily struktura CHizikli – funksional struktura xisoblanadi. U tik chizik (vertikal) buyicha kuyi bugin raxbarlariga, maxsus masalalar buyicha funksional, ya'ni bulim raxbarlariga buysinishni uzida aks ettiradi. U chizikli va funksional tashkiliy strukturada mavjud bulgan kamchiliklarni bartaraf etadi.

CHizikli funksional tashkiliy strukturada mutaxassislar kursatmalari, masalan, mexanik, iktisodchi va boshkalarining uz ishlariga oid kursatmalarni bajarish ijrochilar uchun majburiy xisoblanadi. Funksional bulinmalar faoliyatini muvofiklashtirishni korxonada boshligi olib boradi.

Nazorat savollari

1. Boshqaruv qonuni va qonuniyatlarining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Iqtisoslashtirish qonunining mohiyati nimadan iborat?
3. Integratsiya qonunining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Markazlashtirish qonunining mohiyati nimalardan iborat?
5. Demokratlashtirish qonunining mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
6. Vaqt qonunining mohiyati nimadan iborat?
7. Boshqarish prinsiplari nima?
8. Boshqarish prinsiplarining ishlab chiqarishni boshqarishdagi oʻrni nimalardan iborat?
9. Suv xoʻjaligida ishlab chiqarishni boshqarishning ahamiyati nimadan iborat?
10. Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlari toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
11. Iqtisodiy boshqaruv tizimlari tarkibini tushuntirib bering?
12. Iqtisodiy tizimlar tarkibi toʻgʻrisida izoh bering.
13. Iqtisodiy munosabatlarni qanday tushunasiz?
14. Mehnat vositalari nima?
15. Mehnat predmetlari nima?
16. Iqtisodiy tizim bilan iqtisodiy qonunlar oʻrtasida qanday aloqalar mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stephen P. Robbins, Timothy A. Judge. Essentials of Organizational Behavior (14th Edition) 14th Edition. Pearson; 14 edition (January 14, 2017). ISBN-10: 0134523857. 400 pages
2. Thomas Bournaris (Editor), Julio Berbel (Editor), Basil Manos (Editor), Davide Viaggi (Editor). Economics of Water Management in Agriculture 1st Edition, Kindle Edition. CRC Press; 1 edition (August 26, 2014). International Standard Book Number-13: 978-1-4822-3840-2 (eBook - PDF)
3. Scott J. Callan (Author), Janet M. Thomas (Author). Environmental Economics and Management: Theory, Policy, and Applications (Upper Level Economics Titles) 6th Edition. Cengage Learning; 6 edition (September 26, 2012)
4. Oʻ.P.Umurzoqov, I.L. Abduraximov. Suv xoʻjaligi menejmenti. Toshkent. "Iqtisod - moliya", I va II jildlar. 2008 yil. 900-bet.
5. Sultonov A.S. Umurzoqov Oʻ.P., Rashidov J.X. Suv xoʻjaligi iqtisodiyoti va menejmenti. TIMI. 2008 yil. 248-bet.

2-mavzu: Suv xoʻjaligi tizimini boshqarishning oʻziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Suv xo‘jaligi infratuzilmasi tushunchasi, mazmun va mohiyati.
2. Iqtisodiyot tarmoqlarida suv resurslaridan foydalanish.
3. Suvni kafolatli etkazib berishni ta’minlash chora-tadbirlari.
4. O‘zbekistonda suv iste’molchilari uyushmasi rivojlanishi.

Tayanch iboralar: *Iqtisodiyot tarmoqlarida suv resurslari, Suvni kafolatli etkazib berish, suv iste’molchilari uyushmasi, Suv xo‘jaligi tizimi, menejment, suv resurslarini boshqarish ilmiy-texnika taraqqiyoti va sifatni boshqarish.*

Suv xo‘jaligi infratuzilmasi tushunchasi, mazmun va mohiyati.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub negizlaridan biri suv resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini takomillashtirish masalasidir. Hozirgi kunda suv xo‘jaligida muammolar kelib chiqishiga suv xo‘jaligi infratuzilmalarining texnik holati etarli darajada takomillashmaganligi, ko‘plab sanoat korxonalarining komunal-maishiy xo‘jaliklarining suvdan samarasiz foydalanayotganligi sabab bo‘lmoqda.

Infratuzilma – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo‘lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi. So‘zma-so‘z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir. «Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» - quyi, osti; «structura» - tuzilma, joylashuv so‘zlaridan paydo bo‘lgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma muhim o‘rin tutadi.

Suv xo‘jaligi infratuzilmalari-qishloq xo‘jaligi va boshqa makroiqtisodiyot tarmoqlarining rivoj topishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan irrigatsiya inshootlaridan tashkil topgan faoliyati asosan iste’molchilarni suv bilan kafolatli ta’minlashga qaratilgan, mamlakatimiz iqtisodiy xayotining quyi tizimidir.

Suv xo‘jaligi infratuzilmasi tarkibiga dastlab Amudaryo va Sirdaryo suv havzasi, qolaversa suv omborlari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari, magistral kanallar, tumanlararo kanallar, xo‘jaliklararo kanallar, ichki xo‘jalik sug‘orish shahobchalari, suv taqsimlovchi inshootlar, suv o‘lchagich asboblari, ochiq va yopiq zovurlar va boshqa inshootlar kiradi.

O‘zbekistonning o‘z hududida hosil bo‘ladigan suvning umumiy hajmi 8-10 mlrd. m³ dan oshmaydi, ya’ni har bir gektar sug‘oriladigan er hisobiga tahminan 1000 m³ suv hosil bo‘ladi. Bundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston yarim sahro va sahro mintaqasida joylashganligi sababli o‘z hududida suv tanqisligi o‘ta kuchli hisoblanadi. Demak, mamlakatimizda

iste'mol qilinadigan suvning 80% dan ko'prog'i Qirg'iziston va Tojikiston hududidan oqib keladi.

Mamlakatimiz hududida suv ta'minotini yaxshilash maqsadida bir qancha yirik kanallar qurildi. Bular jumlasiga «Katta Farg'ona», «Katta Andijon», «Katta Namangan» kanallari Farg'ona vodiysida, «Janubiy Mirzacho'l» kanali Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, «Parkent» va «Toshkent» kanallari CHirchiq daryosi vohasida qurildi. Amudaryo vohasida «Qarshi magistral» kanali, «Amu-zang», «Amubuxoro» kanali, «Qoraqum» va boshqa qator kanallar qurildi.

Suv tanqisligini qisqartirish, ta'minotini yaxshilash maqsadida Orol dengizi havzasida qator suv omborlari va bir qancha yirik kanallar qurildi.

Jahonda irrigatsiya beshigi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi o'zining irrigatsiya infratuzilmasiga ega. To'g'onsiz, soy suvi bilan sug'orish davrlaridan o'tgan mamlakat suv xo'jaligi XX asr oxirlariga kelib gidroenergetika va suv ta'minotining katta majmuasiga ega bo'ldi.

Suvdan umumiy foydalanish hajmining 85% irrigatsiya ulushiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotdagi tutgan o'rni, 16 mln dan ortiq bo'lgan qishloq aholisi turmush sharoitining unga bevosita bog'liqligi, ularning turmush darajasi, daromadi va farovonligini hisobga olib, sohani bir me'yorda ta'minlash juda muhimdir.

Ayni paytda 4,3 mln gektar erni sug'orish uchun o'rtacha 57 km³ suv olinmoqda. Sirdaryo havzasida 1 gektar erni sug'orish uchun umumiy suv iste'moli 10,4 ming/m³ ni tashkil etadi. Amudaryo havzasida bu ko'rsatkich 12,5 ming m³ ga tengdir. Suvdan oqilona foydalanmaslik, ya'ni uning samaradorligi pastligi sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biridir. Magistral kanallardan suvning er ostiga sizib o'tishi, xo'jalik ichidagi sug'orish tarmoqlarida va bevosita sug'orish jarayonidagi suv yo'qotishlar – suvdan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardir.

Keyingi yillarda davlat tomonidan magistral suv quvurlari samaradorligini oshirish, suv etkazib berishni yaxshilash va boshqa maqsadlarga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan say-harakatlar sug'orishning qulay yondashuvlari va sxemalari mamlakatning turli hududlarida irrigatsiya tizimlarining turli darajada suvni boshqarish mexanizmlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Biroq ularni keng ko'lamda joriy etish uchun moliyaviy mablag'larning etishmasligi va dehqonchilik tizimidagi mavjud muammolar tufayli bu jarayon nisbatan cheklangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yirik irrigatsiya inshootlari, noyob nasos stansiyalari, to'g'onlar, kanallar va boshqa suv xo'jaligi infratuzilmalari,

shuningdek, infratuzilmalarning eskirishi, ulardan foydalanishning yomonlashuvi, suv uzatish va taqsimlash tizimining tartibsizligi bilan qator hal qilinishi lozim boʻlgan muammolarni ham meros qilib oldi. YAxshi va yomon, zamonaviy va eski, takomillashgan va eskirgan suv xoʻjaligi infratuzilmalarining shu tarzda bir-biriga zid ravishda uygʻunlashishi Oʻzbekiston mustaqillikka erishganda, irrigatsiya sohasidagi vaziyatning qanday darajada ekanligini yorqin ifodasidir.

Irrigatsiya va drenaj infratuzilmasining uzluksiz ishlashini taʼminlash va foydalanish uchun bajariladigan ishlarga mablagʻlar ajratish keskin kamayib, kollektir va drenajlarni taʼmirlash hamda tozalash ishlari hajmi keskin qisqardi, kanallar va gidroinshootlarni qayta qurish ishlari toʻxtadi. Suv xoʻjaligi infratuzilmasiga xizmat koʻrsatishni 191 milliarddan (2000 yilda) 184 milliardga (2003yilda) tushib qoldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil oktyabridagi «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari toʻgʻrisida»gi № PF – 3932 sonli farmoni hamda 2007 yil 31 oktyabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida «Sugʻoriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamgʻarmasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida» gi № PQ – 718 sonli qarorlari qabul qilinishi bu boradagi ishlarni tubdan yaxshilanishiga va yanada jadallashishiga olib keldi.

Iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan sur resurslaridan foydalanish

Bugungi kunda Oʻzbekiston ichki daryolarning 11,5 km³ va transche-garaviy daryolarning 42,0 km³ miqdoridagi oqimidan foydalanish imkoniyatiga ega. Suv resurslari hajmining 84 foizni oladigan sugʻoriladigan dehqonchilik suv resurslarining eng katta isteʼmolchisi hisoblanadi. Barcha isteʼmolchilarning suvdan limit asosida foydalanishi teng taʼminlanish tamoyili boʻyicha amalga oshiriladi.

Suv bilan birinchi navbatda taʼminlanish ustuvorligi quyidagicha:

— ichimlik va kommunal-xoʻjalik suv taʼminoti;

sanoat;

qishloq xoʻjalik suv taʼminoti;

—hukumatning maxsus qarori bilan tasdiqlangan suv isteʼmolchilari.

sugʻorish tizimlari va kichik daryolar boʻyicha sanitar oqimlar.

Suvdan ichish va kommunal ehtiyojlar uchun foydalanish. Kommunal xoʻjalikning asosiy xususiyati — foydalanilayotgan suvga, ayniqsa, ichimlik suvi sifatiga qatʼiy talab qoʻyishida namoyon boʻladi. Irrigatsiyaga aloqasi boʻlmagan isteʼmolchilar orasida bu tarmoq suv olish hajmi, qaytarilmaydigan suv isteʼmoli va aholi punktlar kanalizatsiyasi suvlarini oqizish boʻyicha

birinchi o'rinni egallaydi. Har yili ichimlik va kommunal ehtiyojlar uchun irrigatsiyaga aloqasi bo'lmagan tarmoqlar suv iste'molining yarmini tashkil etadigan — 4,05 km³ hajmda suv olinadi. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, kommunal xo'jalik tomonidan yiliga 1,97 km³ hajmda qaytarilmaydigan suv iste'mol qilinadi.

Ichimlik-xo'jalik suv ta'minotining anchagina qismini er osti suvlari tashkil etadi. Xalq xo'jaligi maqsadlari uchun olinadigan jami 6,205 km³ er osti suvlarning 1,142 km³ shaharlarning ichimlik-xo'jalik ehtiyojlari uchun, 1,423 km³ qishloq aholi punktlari uchun foydalaniladi.

Sanoat ehtiyojlari. Respublika sanoati o'z ehtiyojlari uchun har yili 1,2 km³, shundan atigi 0,58 km³ hajmdagi suv qaytarilmaydi. Foydalanilayotgan suv hajmining qariyb yarimi sifat nuqtai nazaridan atrof-muhitga xavf tug'diradigan sanoat oqava suvlari sifatida qaytib keladi. Ochiq suv havzalariga 502 ta sanoat ob'ekti 0,14-0,17 km³ og'ir metallar tuzlari, ftoridlar, fenol, neft mahsulotlari, azot guruhi elementlari, biologik va muayyan sohalar uchun xos bo'lgan boshqa zararli moddalardan iborat tozalanmagan oqava suvlarni oqizadi.

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti qishloq aholisi xo'jalik-ichimlik, kommunal-maishiy ehtiyojlari hamda qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish ehtiyojlarini (shu jumladan, erlarni sug'orish) qondirishni nazarda tutadi. Bu yirik suv iste'molchisi kommunal xo'jaligi muammolariga o'xshash, ba'zan bundanda jiddiyroq muammolarga duch keladi. Har yili qishloq suv ta'minoti uchun olinadigan 0,906 km³ suvdan 90 foizi qayta ishlatilmaydi. Demak, undan paydo bo'ladigan oqava suvlar hajmi ko'p emas.

Sug'oriladigan dehqonchilik. Umumiy suv iste'molida irrigatsiyaning ulushi 84 foizni tashkil etadi. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini hamda 16 mln. dan ziyod qishloq aholisining hayotiy ta'minoti, daromadlari va farovonligini shu omilga bevosita bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak, tarmoqni tegishli tarzda suv bilan ta'minlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda erlarni sug'orish uchun o'rtacha 57 km³ suv olinadi. Sirdaryo havzasida suv iste'moli ulushi gektariga 10,4 ming km³, Amudaryo havzasida esa 12,5 ming km³ ni tashkil etadi. Suvdan tejamkorlik bilan foydalanmaslik va uning samaradorligi pastligi sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omilidir. Past samaradorlikning asosiy sabablari — magistral kanallarda, ichki xo'jalik tarmog'ida va bevosita sug'orish jarayonida filtrlashuv oqibatida suv yo'qotilishidir. Suv manbasidan olingan suvning kam qismigina maqsadli foydalaniladi.

Keyingi yillarda hukumat tomonidan magistral suv inshootlari, suvni etkazib berishni yaxshilashga yo'naltirilgan bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Halqaro tashkilotlar va donor-davlatlarning sa'y-harakatlari mamlakatning turli mintaqalarida sug'orishning oqilona yondashuv va sxemalari, irrigatsiya tizimlarining turli darajasida suvni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Biroq ularni keng ko'lamda joriy etish ishlari mablag'larning etishmovchigi va dehqonchilik sohasida talay muammolarning mavjudligi tufayli cheklanmoqda. Bu vaqtda esa suvning ifloslanish darajasi va uning oqibatlari barqaror taraqqiyotga o'tish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni qiyinlashtirib, tobora keskin tus olmoqda.

Suvni kafolatli etkazib berishni ta'minlash chora-tadbirlari

Jamiyatning hayotiy ta'minoti va ekotizimni uzoq muddatda saqlab qolish maqsadida mamlakatning suv tarmog'ining boshqa sohalar bilan bog'liq holda istiqboldagi rivojlanishining uchta ssenariysi qabul qilingan:

— "Yomonlashuv ssenariysi" ("Minimum") — makroiqtisodiy rivojlanish va o'zgarishlarning past darajasi, suv infratuzilmasi va qishloq xo'jaligiga investitsiya miqdorining kamligi;

— "Mustahkamlanish ssenariysi" ("Optimum") — tashqi investitsiyalar va iqtisodiy faollikni rag'bartlantirish choralari vositasida iqtisodiyotni jadal barqarorlashtirish va qayta qurish;

— "Tiklanish ssenariysi" ("Maksimum") — ichki va tashqi investitsiyalar asosida qishloq xo'jaligi, irrigatsiya va drenaj sohalarida makroiqtisodiy rivojlanish va tuzilmaviy o'zgarishlarning eng yuqori darajasi.

Suvni kafolatli etkazib berishni ta'minlash uchun O'zbekiston hukumati tomonidan yirik va o'ta muhim suv-xo'jalik ob'ektlarini qayta tiklash, ta'mirlash va yangi suv inshootlarini barpo etish orqali ulardan foydalanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qator qarorlar qabul qilingan.

Sirdaryo havzasida Arnasoy suv ombori barpo etilgan (eng ko'p suv hajmi 1,0 km³), shuningdek Namangan viloyati hajmi 0,2 km³ ni tashkil etadigan Rezaksoy suv omborini qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadbirlar majmuining amalga oshirilishi suvga bo'lgan ehtiyojni qoplama ham, belgilangan limitlar doirasida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, yil davomida suvni taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Bu muammolar mintaqaviy tus olgani sababli respublikalararo darajada hal etilishi lozim. Dunyoning boshqa mintaqalarida suv resurslaridan birgalikda foydalanish tajribasining ko'rsatishicha, qisqa muddatli davrda Markaziy

Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligini mustahkamlash barobarida milliy darajada suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suvni kafolatli etkazib berish kattagina daromad keltirishi va xarajatlarni oqlashi mumkin.

Sugʻoriladigan dehqonchilik. Sugʻoriladigan dehqonchilik avvalgidek suv resurslaridan eng koʻp foydalanadigan, isteʼmolchi hamda aholi bandligi va uning daromadlarini taʼminlovchi mamlakat iqtisodiyotidagi etakchi tarmoq hisoblanadi.

Sugʻoriladigan dehqonchilik tarmogʻida kanallar va sugʻorish maydonlaridagi suv yoʻqotishlarini kamaytirish maqsadida sugʻorish va drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish va unga xizmat koʻrsatishni oʻz ichiga olgan texnik, suv-xoʻjalik va tabiatni muhofaza etish borasida tadbirlar majmui, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish va suv kamchil boʻlgan hududlarni suv taʼminotini taʼminlashga qaratilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. “Optimum” ssenariysiga koʻra, sugʻorish tizimlarining foydali ish koefitsienti 2015 yilda 0,70 gacha, 2025 yilga borib — 0,75 gacha oshirilishi darkor.

Ekinlarni diversifikatsiyalash, erga ishlov berish, oʻgʻitlar sifati va ularni qoʻllash tizimi, oʻsimliklarni himoya qilishni yaxshilash, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali suvdan samarali foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. YAqin kejalakda sugʻorish texnikasi foydali ish koefitsientini oʻrtacha 0,69, 2025 yilga borib esa 0,74 gacha koʻtarish rejalashtirilmoqda.

Ichimlik va kommunal suv taʼminoti. Kelajakda tarmoqdagi asosiy vazifa — aholini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash, suv taʼminoti darajasi, meʼyorlari va ehtiyojga qarab talabni qondiradigan markazlash-tirilgan suv taʼminoti evaziga shaharlar va aholi punktlarining kommunal-maishiy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Kelajakda tarmoqning yaqin va oʻrta istiqboldagi ehtiyojlari quyidagicha:

yaqin istiqbolda — yiliga 6,2 km³ (2010);

oʻrta istiqbolda — 8,1 km³ (2025).

Qishloq xoʻjaligi suv taʼminoti. Tarmoq boʻyicha asosiy vazifa — chorvachilikni suv bilan taʼminlash, dehqonchilikning ishlab chiqarish sohasining texnik, agrokimyoviy va boshqa ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Kelajakda uning ehtiyojlari quyidagicha boʻlishi mumkin:

yaqin kelajakda — 1,5 km³ (2010);

oʻrta istiqbolda — 1,7 km³ (2025).

Oʻzbekistonda suv isteʼmolchilari uyushmasi rivoji

O‘zbekistonda 4 mln. gektardan ortiq sug‘oriladigan erlar bor. Irrigatsiya maqsadlariga suv asosan ikki manbadan — Sirdaryo va Amudaryo hamda katta-kichik kanallar tarmog‘i orqali iste‘molchilarga etkazib beriladi. Qishloq xo‘jaligi suvdan foydalanuvchi asosiy iste‘molchi hisoblanadi - suvning 90 foizdan ortiqrog‘i ana shu tarmoq ehtiyojlari uchun foydalaniladi.

Yirik xo‘jaliklarning jadal tugatilishi va ko‘plab mustaqil ishlab chiqarish birliklari — fermerlar xo‘jaliklarning tashkil etilishi, ilgari shirkat xo‘jaliklari qaramog‘ida bo‘lgan ichki xo‘jalik irrigatsiya va drenaj tizimini boshqarishda va moliyalashtirishda ma‘lum bo‘shliqning vujudga kelishi olib keldi. Hukumat mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida suv iste‘molchilari uyushmalarini (SIU) tashkil etishni rag‘batlantirmoqda. SIU mutlaqo yangi institut bo‘lmay, kattagina tarixga egadir. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda SIU suv tizimlarini talab darajasida saqlash va moliyalashtirish imkoniyatini beradigan suv iste‘molchilarining barqaror va samarali faoliyat yuritadigan tashkiloti hisoblanadi. Mazkur davlatlar tajribasi aynan ana shu tashkilotlar ichki xo‘jalik irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini samarali boshqarish imkoniyatini beradigan tashkilotlar ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ushbu SIUlar 1999-2000 yillarda, ya‘ni samarasiz ishlayotgan jamoa xo‘jaliklari o‘rniga uyushmalarga birlashgan fermer xo‘jaliklarini tashkil etish davrida paydo bo‘lgan, keyinchalik ana shu xo‘jaliklar asosida suv istemolchilarining dastlabki 13 assotsiatsiyasi shakllantirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvarida qabul qilingan “Qishloq xo‘jalik korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 8-sonli qarori hamda unda bayon etilgan “Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jalik korxonalarini hududida suv-xo‘jalik munosabatlarini boshqarish tartibi”dan keyin SIU tashkil etish jarayoni yanada jadal tus oldi.

Hozirgi vaqtda SIU moddiy-texnika bazasi ham, kadrlar potentsiali ham zaifligicha qolmoqda. SHuningdek ular moliyaviy menejment, suv resurslarini strategik boshqarish, sug‘orish va kollektor-drenaj tizimini rejalashtirish, xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish borasida katta tajribaga ega emas.

SIUning faoliyati o‘z a‘zolari, ya‘ni fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatining natijalariga bevosita bog‘liqdir.

Bu o‘rinda quyidagi asosiy muammolarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

— SIU a‘zolari hisob raqamlarida har doim ham erkin mablag‘lar bo‘lmashligi sababli, ular a‘zolik badallarini va SIUning xizmatlari haqini o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatiga ega emas;

fermerlarga neft-yoqilg‘i mahsulotlari, o‘g‘it va MTP xizmat haqini to‘lashi uchun imtiyozli, maqsadli kreditlar ajratiladi. Ammo bu kreditlarda SIU xizmat haqini to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar SIU xarajatlarini

qoplamaydi. SHu munosabat bilan, SIU a'zolarida yuqori darajadagi kreditorlik va debitorlik qarzlari paydo bo'ladi;

SIU nodavlat va notijorat tashkilot sifatida qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilishi kerak, ammo undan soliq undirib olinmoqda;

irrigatsiya tizimi va SIU boshqaruvi mutaxassisleri malaka-sining pastligi.

SIU rivojlantirish uchun zarur huquqiy bazani ta'minlash uchun SIU faoliyatiga oid, jumladan, SIU haqidagi qonun, soliqqa tortish bo'yicha me'yoriy hujjatlar majmui kabi qonunchilik va huquqiy me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi zarur.

Yildan-yilga suv resurslarining mavjudligi bilan bog'liq vaziyat tobora keskinlashib borayotgani qaramay, mamlakatimizda suvni bepul etkazib berish amaliyoti davom etmoqda. Bunday yondashuv bu qadar qimmatli va zarur resursdan oqilona foydalanishga rag'batlantiradi deyish qiyin. SHu bilan birgalikda, mazkur tamoqning nafaqat istiqboldagi rivoji, balki bugungi kunda jamiyat ehtiyojlarini talab tarajasida ta'minlash uchun ushbu sohaga katta miqdorda mablag' yo'naltirish zarur. Suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni rag'batlantirish uchun jahondagi ko'plab davlatlarda pullik to'lov tizimi joriy etilgan. Turli mamlakatlarda suvga bo'lgan xarajatlarni qoplash turi va darajasini o'sha davlatlarning shart-sharoitlari va suv iste'molchilari imkoniyatlariga qarab farqlanadi. Deyarli barcha mamlakatlarda sanoat-kommunal suv iste'moli uchun eng yuqori to'lov miqdori belgilangan (u suv-xo'jalik kompleksining ushbu sohaga xizmat ko'rsatish borasidagi xarajatlarini to'liq qoplaydi). Irrigatsiya suv iste'molchilari esa bu borada muayyan imtiyozli holatda bo'lib, foydalanish xarajatlarning bir qisminigina qoplaydi. O'zbekistonda suvdan foydalanishning pullik xizmat turini joriy etish borasida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Ta'kidlash joizki, bu o'rinda so'z mamlakatimizda resurs sifatida suv uchun pul to'lash xususida emas, uni iste'molchiga etkazib berish bilan bog'liq xizmat xarajatlarining bir qismini qoplash haqida bormoqda.

Suv xo'jaligi tizimini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari

Respublikamizda amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlarning tub negizlaridan biri suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish masalasidir. Hozirgi kunda suv xo'jaligida muammolar kelib chiqishiga suv xo'jaligi infratuzilmalarining texnik holati etarli darajada

takomillashmaganligi, ko'plab sanoat korxonalari, komunal- maishiy xo'jaliklarining suvdan samarasiz foydalanayotganligi sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, respublikamiz qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning asosiy qismi - 4,2 mln. gektari sug'oriladigan erlardan iborat bo'lib, etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90 foizidan ortig'i mana shu erlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasida bir yilda o'rtacha 67 mlrd. m³ suv iste'mol qilinadigan bo'lsa, shundan 50 mlrd. m³ da ko'prog'i sug'orma dehqonchilik uchun sarflanadi. Har bir gektar sug'oriladigan erga o'rtacha 11-12 ming m³ suv sarflanadi. Agar suvning 20 foizi mamlakatimizda hosil bo'lishini qolgani esa Qirg'iziston va Tojigiston respublikalaridan oqib kelishini inobatga olsa, mamlakatimiz uchun suv qanchalik qadrliligi, undan samarali foydalanish, suv xo'jaligini boshqarishga yangicha yondashuv zarur ekanligi ayon bo'ladi. SHu bois ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini texnik holatini yaxshilash, zamonaviy sug'orish tarmoqlari va inshootlari qurish, mavjudlarini ta'mirlash va qayta tiklash dolzarb muammolardan biridir.

Respublika bo'yicha sug'oriladigan erlar maydoni va suv resurslaridan foydalanish holatining tahlili, so'nggi yillarda sug'oriladigan erlar maydoni va limitga nisbatan haqiqatda foydalanilgan suv hajmi kamayganligini ko'rsatdi (1-jadval).

Respublika bo'yicha sug'oriladigan erlarni meliorativ va sho'rlanish holati hamda salmog'ining tahlili, meliorativ holati yaxshi bo'lgan erlar maydoni oshganligini va meliorativ holati qoniqarsiz bo'lgan erlar maydoni kamayganligini ko'rsatdi.

Suv xo'jaligida mavjud muammolarni echishda menejment imkoniyatlaridan keng foydalanish yaxshi samara beradi. Bularni quyidagilarda e'tirof etish mumkin:

-suvdan oqilona foydalanishning muammolarini hal qilish maqsadida menejment, "Sug'oriladigan erlarning melioratsiyasi", "Dehqonchilik", kurslarini ilg'or uslublaridan foydalanish, ularni amaga oshirish zarurligini iqtisodiy asoslab berish asosida suvdan foydalanish koeffitsentini oshirish yo'llarini belgilab beradi. Bu esa ekin maydonining xar bir gektariga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarini yaxshilash, suv sarfi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sarf-xarajatlarini keskin tushiradi, suv resurslarini taqchilligini pasaytirishga ta'sir ko'rsatadi, qishloq xo'jaligida ishlab chikarish samaradorligini oshirish imkonini beradi;

- suv xo'jaligida tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqib, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, uning ratsional shakllarini asoslab beradi;

-ilg'or uslublardan foydalanib, suv xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirishni iqtisodiy jixatdan asoslab beradi;

-suv isrofgarchiligiga yo‘l qo‘ymaydigan texnologiyalarni (tomchilab sug‘orish tizimi, oralatib sug‘orishning yangi uslublari) ularni qo‘llash sohasini optimallashtirish asosida joriy etish yo‘llarini belgilab beradi;

-yirik nasos stansiyalarida, suv omborlari va gidrotexnik inshootlarida kompyuter texnologiyalari xamda boshqa elektron texnikalardan foydalanishni ko‘zda tutuvchi boshqarishning masofaviy avtomatlashtirilgan tizimi majmuini yaratish va joriy etish yo‘llarini belgilab beradi;

-turli suvni tejovchi xorijdagi va vatanimizdagi texnologiyalarni tajribaviy asosda sinovdan o‘tkazish yo‘li bilan O‘zbekiston sharoitida qabul qilish mumkin bo‘ladigan eng samarali texnologiyalarni respublika suv xo‘jaligida keng ko‘lamda joriy etishni iqtisodiy jixatdan asoslab beradi;

-sug‘orish inshootlarini qurishning yangi materiallarini qidirib topish, tajriba uchastkalarini sinovdan o‘tkazish, ulardan sug‘orish tizimini ekspluatatsiya qilishda foydalanish bo‘yicha texnik hujjatlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

2. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslari cheklangan. SHuning uchun suv resurslarini butun chora- tadbir va usullarni qo‘llagan holda tejash va samarali foydalanish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. CHunki suv resurslarisiz xalq xo‘jaligi taraqqiyotini ta‘minlab bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda respublikamizda suv davlat mulki bo‘lib, uni boshqaruvchi tashkilotlar davlatga qarashlidir. Bular O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va ularning tizimidagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari hisoblanadi. Bu tashkilotlar sug‘orish tizimlaridan foydalanishda, suv taqsimotini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuniga asoslangan holda ish yuritadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish asosan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ixtiyoridadir. YUqoridan pastga qarab uning tarkibida faoliyat yurituvchi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, ular tizimidagi irrigatsiya tizimi boshkarmalari, yirik magistral kanallar va suv omborlari, viloyatlar tarkibida tumanlararo kanallar va suv omborlari, suvdan foydalanuvchi uyushmalari va boshqa tashkilotlar ish olib bormoqdalar.

Ma‘lumki, suv resurslarini rejalashtirish va taqsimlash bilan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, uning tizimidagi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, ular tarkibidagi irrigatsiya tizimi boshqarmalari bevosita shug‘ullanadilar.

Suvdan foydalanishni rejalashtirish uchun sug‘orish mavsumi (vegetatsiya davri) boshlanishidan oldin suv iste‘molchilari o‘zlarining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini irrigatsiya tizimi boshqarmasiga beradilar. Boshqarma esa o‘z

navbatida tumanning suvga bo'lgan ehtiyojini umumlashtirib, reja tuzadi va uni irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga topshiradi. Havza boshqarmasi esa tizim bo'yicha suvga bo'lgan ehtiyojni umumlashtirib reja tuzadi va bu rejani Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga topshiradilar. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ushbu ma'lumotlarni har tomonlama o'rganib chiqib, natijada respublika bo'yicha mavjud bo'lgan suv manbalarining imkoniyatini oldindan bashorat qilib, yirik suv iste'molchilari va viloyatlar bo'yicha suv taqsimlash ishlariga kirishadi. Bu vazifani odilona bajarish uchun viloyatlar va ichki manbalar bo'yicha suvning aniq limitlari belgilab chiqiladi. Manbada suvning ko'p yoki kam bo'lishi ro'y berganda limitlar miqdorini u yoki bu tomonga o'zgartirilishi mumkin.

Suv xo'jaligining yuqori darajada suv resurslari bilan ta'minlanganligi, ulardan samarali foydalanish, infratuzilmaning holati, qishloq xo'jaligini xududiy rivojlantirishning strategiya va taktikasiga hamda suv xo'jaligi inshootlaridan samarali foydalanish bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda suv resurlarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish o'ziga xos jihatdan yondashuvni talab etadi. Buni esa ichki imkoniyatlarni inobatga olib bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni bilan qishloq va suv xo'jaligi vazirligi irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish tamoyillari asosida er usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor tamoyillarini joriy etish vazifasi yuklatildi. Ushbu farmon asosida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 iyuldagi 320-sonli qarori bilan irrigatsiya tizimlarini boshqarish ma'muriy-hududiy tamoyildan havza tamoyiliga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarishning oldingi tarkibida jami 260 ta tashkilotlar faoliyat yuritgan bo'lsa, amaldagi tarkib esa o'z ichiga 101 ta tashkilotni birlashtiradi yoki ular soni 159 taga qisqartirildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi «Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi» zimmasiga: Davlatlararo suv xo'jaligi komissiyasi, Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari, Markaziy dispetcherlik xizmati, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari faoliyatini samarali va bozor tamoyillari hamda mexanizmlari asosida tashkil qilish vazifasi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-Birinchidan, suv resurslarining zahiralari juda cheklanganligi.

-Ikkinchidan, suv resurslarining hududlar bo'yicha turlicha taqsimlanganligi.

-Uchinchidan, suv resurslarining hosil bo'lishi ko'p jihatdan tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liqligi.

-To'rtinchidan, suv resurslarini boshqarish davlat ahamiyatiga molikligi.

-Beshinchidan, suv xo'jaligining mavsumiy xarakterga ega ekanligi.

-Oltinchidan, irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini qurish va ta'mirlash ishlarini to'liq amalga oshirish, ko'p jihatdan davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar miqdoriga bog'liqligidir.

Bularning barchasi o'z navbatida suv resurslarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi va mamlakatimizda bozor munosabatlari qaror topgan sharoitda, ularni boshqarishga alohida yondashuvni va takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda suv xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishning ob'ektiv zaruriyati quyidagilardan iborat:

-iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari suv xo'jaligida ham bozor munosabatlarining shakllanishi;

-turli mulkchilik shakllaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarning vujudga kelishi;

-suv resurslarining zahirolari cheklanganligi bois undan samarali foydalanishni tashkil etish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarning sug'orish suviga bo'lgan talabining o'sib borishi;

- irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larining etishmasligi va suv xo'jaligi tashkilotlarining

Suv xo'jaligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari uni samaradorligini baholashga ham o'ziga xos jihatdan yondashuvni talab etadi. Bu esa o'z navbatida suv xo'jaligi tizimini boshqarishga alohida yondashuvni taqozo etadi.

4.Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 iyuldagi «Suv resurslarini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan respublikamizda irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy – hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi. Suv resurslarini boshqarishning hududiy prinsipdan havza prinsipiga o'tish suv xo'jaligi tizimida quyidagi ijobiy natijalarga erishishga olib keldi va bir qator imkoniyatlarni yaratdi:

-bir necha ma'muriy hududlardan o'tadigan irrigatsiya tizimini bir havza boshqarmasi bilan boshqarish imkonini berdi;

-ma'lum irrigatsiya tizimi havzasi uchun suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish imkonini berdi;

- iste'molchilarni o'z vaqtida suv bilan uzluksiz ta'minlash,

irrigatsiya va melioratsiya inshootlarining holatini yaxshilash, texnik ishonchliligini oshirishga keng sharoit yaratildi;

- suv manbai bo'yicha barcha iste'molchilarni ularning talabiga qarab proporsional ta'minlash imkonini berdi;

- iste'molchilar bo'yicha suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobini ta'minlash bo'yicha yagona siyosat olib borishni ta'minladi;

-suvdan foydalanishni rejalashtirish va taqsimlashni hamda boshqarishni ilmiy asosda ishlab chiqish va amalga oshirishga sharoit yaratildi;

-suv manbai bilan suvni bevosita iste'molchilari o'rtasida ortiqcha oraliq bo'g'inlari bartaraf etildi;

- suv xo'jaligi tashkilotlarida rahbar va xodimlarning mas'uliyatini oshirish hamda suvdan foydalanish intizomiga rioya qilishini ta'minladi;

- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilishni engillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun zarur shart- sharoitlarni ta'minlash imkonini berdi.

Suv xo'jaligini boshqarishning hududiy printsipiga o'tish natijasida suvdan foydalanish rejalarini ishlab chiqish, suv olish va undan foydalanish bo'yicha limitlarni belgilash, suv olish va undan foydalanish yuzasidan shartnomalar tuzish, suv resurslari balansini ishlab chiqish va hujjatlarda tubdan o'zgarishlar yuzaga keldi.

Suv xujaligi ishlab chikarishida ilmiy-texnika tarakkiyoti va sifatni boshkarish

Ilmiy - texnika tarakkiyoti deganda biz mexnat predmetlari va kuollarini uzluksiz rivojij va tarakkiyotini, yangi kurilish materiallari yaratishni, takomillashgan texnologiya va texnikani jorij etishni, ilgor boshkarishni, mexnatni va ishlab chikarishni tashkil etish usullari va shakllarini tushunamiz.

Xozirgi paytda ilmiy - texnika tarakkiyotining sifat kursatkichlaridan biri shundaki, fan bevosita ishlab chikarish kuchlariga aylanib bormokda, kul kuchini kamaytirish, mexnatni engillashtirish, ishlab chikarilayotgan maxsusot sifati va mustaxkamligini oshirishga va uzok vakt xizmat kilishini ta'minlashga, ishlab chikarishni mxanizatsiyalash va avtomatlashga karatilgandir.

Ilmiy - texnika yutukdaridan ob'ektiv zaruriyati tufayli suv xujaligi ishlab chikarishini boshkarishda foydalanish bir nechta sabablar bilan aniklanadi: ilmiy-texnika tarakkiyoti kurilishning industrial usullariga asoslangan xolda ishni olib borish; kapital mablaglar samaradorligni oshirish, melioratsiya kilingan erlarni kaytadan ishga tushirishni tezashtirish va pirovard natijada kishlok xujaligini

rivojlantirishni tezlashtirish va tabiatning unga bulgan salbiy ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

Melioratsiya tub moxiyatiga kura ilmiy - texnika tarakkiyotining shakli va yunalishi xisoblanadi. Melioratsiya jarayoni kup kirrali bulib, u kuyidagi tadbirlar majmuini uz ichiga oladi: sugorish, erni shurini yuvish, erni tekislash ishlarini olib borish, suv-xavo rejimini tartibga solish, suv chikarish, erni madaniylashtirish, erni toshlardan tozalash, uni tekislash, sugorish kartalarini yiriklashtirish orkali texnika va kishlok xujalik mashinalaridan foydalanishni yaxshilash, yukori unumli yaylovlarni yaratish, tuprokni gipslash, suv va shamol eroziyasiga karshi kurashish. Suv okimini tartibga solish va boshkalar. Aloxida kayd etish joizki, melioratsiyaning barcha turlari mexnat sharoitini yaxshilash va mexnat unumdorligini oshirishda muxim rol uynaydi.

Ilmiy - texnika tarakkiyoti suv xujaligi ishlab chikarishini boshkarishda kator ilmiy-texnika vkrtila - kidiruv yshlari suv xujaligi kurulishi ekspluatatsiya tashkilotlari- xamda kupgina boshkarish apparati xodimlarini jalb kilish orkali amalga yshiriladi. Bunda ilmiy - texnika tarakkiyoti kator bir-biriga boglik buginlarni uz ichiga oladi. Bu yunalishda kuyidagi turtta boskichni aloxida kursatib utish mumkin:

- Tegishli tarmokda fan va ishlab chikarishning birligini ta'minlashga karatilgan vertikal buyicha ilmiy-texnika tarakkiyotini boshkarish;
- Aloxida olingan tarmokdarni xalk xujaligining boshka tarmoklari bilan uzviy alokadorligi va boglikligini xisobga olgan xolda gorizonta buyicha amalga oshiriladigan ilmiy - texnika tarakkiyotini boshkarish.

SHundan keyin ilmiy - texnika tarakkiyotini aks ettiruvchi kursatkichlar tizimini urganishga utish lozim. SHu munosabat bilan kuyidagi kursatkichlar guruxini tashkil etish mumkin:

- Iktisod kilingan joriy va kapital xarajatlarni uzida aks ettiruvchi umumlashgan iktisodiy kiymat kursatkichlari;
- Ilmiy - texnika tarakkiyotining natijaviy (elektr energiyani, metallni; yokilgini iktisod kilish) xolatini baxolashda kulaniladigan texnik-iktisodiy kursatkichlar;
- Material va konstruksiyani mustaxkamligini, texnikaning ishonchliligini va uning anik ishlashini kafolatlovchi texnik kursatkichlar.

Ilmiy - texnika tarakkiyotini boshkarish.

Ilmiy - texnika tarakkiyoti va uning natijalarini kurulishga joriy etish bu jarayonni boshkarishni talab etadi. Boshkarish usullari ichida eng muximi rejalashtirish va iktisodiy ragbatlantirish xisoblanadi.

Uzbekistan Kishlok va suv xujaligi vazirligi tizimida ilmiy ishlarni rejalashtirish va muvofikashtirish bevosita ilmiy - texnika bosh boshkarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Uning zimmasiga ilmiy - tadqiqot institutlari faoliyatini nazorat qilish va tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Boshkarma tugallangan ilmiy ishlar buyicha tayyorlangan takliflardan foydalanish va ilmiy-tadqiqot ishlarini samaradorligini oshirish buyicha mas'ul xisoblanadi.

Ilmiy - texnika tarakkiyotining dastlabki boskichi istikbolni aniklash (bashoratlash)dir. U kuyilgan masalani echishning bir nechta variantlarini uz ichiga oladi. Keyin ushbu variantlardan eng ma'kuli tanlab olinadi.

Meliorativ kurilish soxasida istikbolni ishlab chikish kator tarmoklarda xujjatlarga asoslangan bulib, istikboldagi ilmiy - texnika tarakkiyotini uzida aks ettiradi. Unga "kurilishni joylashtirish, rivojlantirish sxemasi va uning bazazi", "kurilish - montaj tashkilotlarining ishlab chikarish va texnika bazasiy rivojlantirish kurilishning texnik darajasini oshirish, uning kiymatini kamaitirishning asosiy yunalishlari" kabilarni kiritish mumkin. Bu dasturiy xujjatlar yagona texnika siyosatini yakin kelajak uchun aniklab beradi.

Suv xujaligi kurilishi tashkilotlarida ilmiy - texnika tarakkiyoti tarmoklaryistikbolini aniklash orkali olib boriladi. Xususan unga "suv resurslaridan- okilona foydalanish va muxofaza kilishni ilmiy.-texnik istikbollarni melioratsiya optimal tizimini aniklash, tuprokni eroziyadan saklash va uning unumdorligini oshirish usullar»" va boshkalar kiradi. Kurilish tashkilotlarida texnika tarakkiyoti darajasini taxlil kilish uchr!" koeffitsientlar yordamida xisob - kitob nilingan kator kursatkichlardan foydalanish maksadga muvofikdir. Bunga mexnatni mexanizatsiyalash kursatkichini misol kilib kursatish mumkin. Bu kursatkich mexanizatsiyalash buyicha mikdoriy baxolash imkonini beradi. U ikki kursatkich orkali anikdanadi:

Ilmiy-texnika tarakkiyoti bilan uzviy boglik bulgan muammo maxsulot sifati va mexnat sifati xisoblanadi. Aloada ta'kidlash joizki ilmiy-texnika darajasi albatta sifatga ta'sir etadigan maxsulotni, texnikani va ish joyini attestatsiyalashda kullaniladi.

Bu mavzuni urganishdan oldin sifatni boshkarishning ob'ektiv zarurligini yaxshi anglab etmok lozim. Buninartifi kurilish maxsulotlarini boshkarish tizimi majmuini (KMBTM), uning tuzilishi va faolyyati prinsiplarini, ishlab chikish va xayotga joriy etish tartib koidalarini bilish lozim.

Maxsulot sifatin boshkarishning yagona Davlat tizimi prinsipi tugrisida tuxtalib utish maksadga muvofikdir. Bu tizim sifat kursatkichini ishlab chikarishni boshkarish tizimi bilan, ya'ni maxsulot xayotiy siklini uz ichiga olgan loyixalashtirish, kurilish va ekspluatatsiya ishlarini yagonaligini ta'minlash asosida olib boriladi. Suv xujaligi ishlab chikarishi sifatin ta'minlash boshkarish va tashkil etishning muxim vazifasi xisoblanadi. Meliorativ ob'ektlarning sifatin oshirish

uning uzok muddat ishlashini ta'minlaydi, ishonchligini oshiradi, uzlashtirish va ekspluatatsiya jarayonida xarajatlarni kamaytiradi, kapital mablaglar samaradorligini oshiradi. Meliorativ ob'ektlarning talab darajasidagi sifatiga erishish muammosi murakkab bulib uni echish sistemali yondashishni talab etadi.

Sifatni boshkarishga kuyidagicha ta'rif berish mumkin. "Maxsulot sifat darajasini urnatish, ta'minlash, saklash, loyixalash, kurish va undan foydalanish jarayonida uzluksiz nazorat ishlarini olib borish x.amda maksadga muvofik ravishda sifat shartiga va omillariga ta'sir etishdir".

- 1.Nukson va kamchiliklarni tuzatish uchun sarf kilingan xarajatlar;
- 2.Sifat darajasini oshirish bilan boglik bulgan xarajatlar;
- 3.Xarajatlar yigindisi.

Bundan kurinib turibdiki, ob'ektning sifati loyixa xujjatlarini ishlab chikishdan boshlanadi, shakllanadi va foydalaniladigan kurilish materiallari, konstruksiya, buyumlar, krlaversa ishlab chikarishda bajariladigan ishlar sifatiga boglik buladi. Ob'ektning xizmat muddatiga va ish kobiliyatiga ta'sir etuvchi muxim omillardan biri kurilish tugagandan keyin undan foydalanishdir. SHu munosabat bilan ob'ektdan foydalanish sifati nafakat kurilgan inshootlardan bevosita foydalanishni, balki tugri texnik xizmat kursatish tizimini uz vaktida ta'mirlash, melioratsiya tizimini xamda gidrotexnik inshootlarni takomillashtirishni uz ichiga oladi.

Xar bir tarixiy boskichda sifatga bu\lgan talab aniklanadi.Bu talab fan va texnikaning rivojlanish darajasi, iktisodiy maksadga muvofikligi, erishish imkoniyatlari, foydalanish ishonchliligi aniklanadi. . SHu bilan birga sifatning usishi bilan nuksonlarni va kamchiliklarni tuzatish uchun sarf kilinadigan xarajatlar kamayadi. SHuningdek konkret sharoit uchun maxsulot sifati uchun optimal talab darajasini urnatish mumkin . Uchinchi egri chizikdan shunday xulosa chikarish mumkin. Maxsulot sifatining eng yukori va past darajalariga bir xil umumiy xarajatlar sarflab erishish mumkin . Tabiiyki xalk xujaligi nuktai nazaridan iste'molchilar eng yukori sifat kursatkichiga erishishi mumkin.

Sifat kursatkichiga kurilish ishlari xajmi kupayib borishi bilan talab usib boradi, chunki ishdagi kichik bir nukson xam katga yukotishlarga olib kelishi mumkin.

Suv xujaligi ob'ektlari sifati xar xil boskichlarda kator omillar va sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Loyixani ishlab chikish sifati umumiy talablardan tashkari ilmiy yangi natijalarni va ishlab chikarish tajribalarini, kabul kilingan istikbolli iktisodiy xamda texnik asoslangan karorlarni, joriy kilingan yangi texnologiyani, yangi turdagi materiallar konstruktiv karorlarni xisobga olishni talab etadi. Loyixa karorlarini realizatsiya kilishda loyixalashning dastlabki

boskichda barcha imkoniyatlardan foydalanish, zamonaviy texnika va texnologiya asosida barcha kurilish ishlarini imkon darajasida bajarishni talab etadi.

Kurilish ishlariga talab kator me'yoriy xujjatlar orkali tartibga solinib turiladi va aniklanadi. Bundan me'yoriy xujjatlarga (SNiP)-kurilish normalari va koidalari, (SN)-kurydash normalari, davlat standartlari (GOST, OST), texnik sharoitlar.. (TU, RTI), xar xil yuriknomalar, kursatmalar, tavsiyanomalar va nixoyat loyixa xujjatlarining kursatmalari kiradi.

Ishlab chikarish ishlari bajarilayotgan joylarda nazorat bevosita bajaruvchilar, unga raxbarlik kiluvchilar, ishchilar, brigadirlar, masterlar, prorab, injener va uchastka boshliklari tomonidan olib boriladi.

Ishning natijaviy sifat kursatkichlariga yukori tashkilot UK, KMB, korxonona, birlashma, bosh boshkarma mutaxassislari ma'sul xisoblanadi.

Tashki nazorat va ob'ektni kabul kilishda buyurtmachining texnik nazorati, loyixa tashkilotining mualliflik nazorati, sifat buyicha davlat kurilish inspeksiyasi, ishchi kabul komissiyasi, davlat kabul xay'ati komissiyasi ishtirok etadi.

Kurilish tashkilotlari tomonidan ishning sifatini nazorat kilish va unga baxo berish tegishli bulinma bosh injeneri raxbarligida olib boriladi.

Kurilishning boskichlari va bajarilishiga karab kuyidagi tekshiruv va nazorat ishlariga amal kilinadi:

Barcha bajariladigan ish turlari buyicha nazorat (brigadir, ishchilar tomonidan olib boriladi).

Uskuna, buyum, konstruksiya va materiallarga oid texnik xujjatlarni tekshirish (prorab, master tomonidan olib boriladi).

Xar bir ishni bajarish sifatini baxolash buyicha nazorat (prorab, master tomonidan olib boriladi).

Tanlov-tekshiruv (bosh injener, texnik inspeksiya, jamoa nazorati orkali olib boriladi).

Vakti-vaktida olib boriladigan tanlov-tekshiruv (korxonona bosh injeneri, davlatning texnik inspeksiyasi).

Sifatini tekshirishdan maksad talab kilingan me'yorga va loyixa ma'lumotlariga bajarilgan ishni yoki kurilgan ob'ektni moe kelishini aniklashdir. Umumiy xolda tekshiruv kuyidagi kursatkichlar orkali olib boriladi: 1) mekonda ob'ektning xolati (reja buyicha); 2) inshootning geometrik xajmi; 3) foydalaniladigan materiallarning (maxalliy, uzi ishlab chikkan yoki tashib keltirgan) sifati va xususiyati; 4) inshootni kurishda materiallarning sifati va xususiyati, ya'ni detal va konstruksiyalar sifati (inshootning beton va temir beton kismlarining sifati, gidroizolyasiya ximoyasi, filtratsiyaga karshi kurilmalar sifati va boshkalar), pardozlash va estetik elementlar sifati.

Barcha nazorat ishlari anik va chetlashishning me'yoriy chegarasi doirasida bajarilgan bulishi lozim. Agar bajarilgan ishlar chetlashishning me'yoriy darajasidan chikib ketgan bulsa, uni tuzatish lozim buladi. Agar tuzatish imkoni bulmasa, foydalanishga yaroksiz deb topiladi va ob'ekt kaytadan yangilanadi yoki tiklanadi.

Bajarilgan ishlar uchta kursatkich bilan aniklanadi: "a'lo", "yaxshi", "konikarli". "A'lo" baxoga. ega bulgan ob'ektlarga kuyidagi talablar kuuiladi: Ob'ekt loyixaning barcha texnik va me'yoriy talablariga javob berishi va unga mos kelishi lozim. Me'yoriy kursatkichlardan chetlashish minimal bulishi pradozlash ishlari yukori did bilan bajarilgan va birinchi kurikdayok foydalanimga kabul kilinishi lozim. "YAxshi" baxo ob'ekt tuda, loyixaning me'yoriy kurstkichlariga moe ravishda kurilgan bulsa, ruxsat berilgan me'yoriy chetlashish urtacha bulsa va birinchi kurikdayok foydalanish uchun kabul kilinganda beriladi. "Konikarli" baxo kurilish loyixa me'yoriy kursatkichlari chegarasidan utmagan, topshirik kayta ishlangan, birinchi kurikda emas, ikkinchi, ba'zidan uchinchi kurikda kabul kilinadigan ob'ektlarga beriladi.

Nazorat savollari

1. Suv xo'jaligida muammolarni echishda menejment imkoniyatlaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.
2. Suv xo'jaligi tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Suv resurslarini havzaviy boshqarishning afzalliklari.
5. Ilmiy-texnika taraqqiyotining suv xo'jaligidagi ahamiyati va mohiyati.
6. Ilmiy-texnika natijalaridan foydalanishning ob'ektiv zarurligi.
7. Suv xo'jaligida ilmiy- texnika taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.
8. Ilmiy-texnika taraqqiyotini boshqarish va uning ishlab chiqarishda joriy etilishi haqidagi asosiy tushunchalar.
9. Suv xo'jaligida sifatni boshqarishning asosiy yo'nalishlari.
10. Sifatni baholash ko'rsatkichlari. Sifatni nazorat qilish bosqichlari.
11. Suv xo'jaligi infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
12. Suv xo'jaligi infratuzilmasi mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
13. Iqtisodiyot tarmoqlarida suv resurslaridan qanday foydalaniladi?
14. Suvni kafolatli etkazib berishni ta'minlash chora-tadbirlari nimalardan iborat?
15. O'zbekistonda suv iste'molchilari uyushmasi rivojlanishi bo'yicha qanday tasavvurga egasiz?

16.Suv xo‘jaligi infratuzilmasi faoliyatini yaxshilash yo‘llari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stephen P. Robbins, Timothy A. Judge. Essentials of Organizational Behavior (14th Edition) 14th Edition. Pearson; 14 edition (January 14, 2017). ISBN-10: 0134523857. 400 pages
2. Thomas Bournaris (Editor), Julio Berbel (Editor), Basil Manos (Editor), Davide Viaggi (Editor). Economics of Water Management in Agriculture 1st Edition, Kindle Edition. CRC Press; 1 edition (August 26, 2014). International Standard Book Number-13: 978-1-4822-3840-2 (eBook - PDF)
3. Scott J. Callan (Author), Janet M. Thomas (Author). Environmental Economics and Management: Theory, Policy, and Applications (Upper Level Economics Titles) 6th Edition. Cengage Learning; 6 edition (September 26, 2012)
4. O‘P.Umurzoqov, I.L. Abduraximov. Suv xo‘jaligi menejmenti. Toshkent. “Iqtisod - moliya”, I va II jildlar. 2008 yil. 900-bet.
5. Sultonov A.S. Umurzoqov O‘P., Rashidov J.X. Suv xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. TIMI. 2008 yil. 248-bet.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot

O‘zgarish konsepsiyasi

Ishdan maqsad: Suv xo‘jaligi tashkilotida o‘zgarishlarni tushunish; o‘zgarish konsepsiyasi (concepts of change), o‘zgarish modellari, o‘zgarish omillari (drayverlari), o‘zgarish toifalari (taktik va strategik, shu jumladan), to‘siqlar / qarshilik, o‘zgarish jarayonini boshqarish. O‘zgarish tizimlari (systems for change).

«Blits-so‘rov» savollarga javob bering.

№	Savollar	Javoblar
1.	Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining mazmuni nimalardan iborat?	
2.	Ishlab chiqarish vositalari va uning suv xo‘jaligini boshqarishdagi o‘rni nimalardan iborat?	
3.	Ishlab chiqarishni boshqarish maqsadi va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?	
4.	Iqtisodiy qonunlarning boshqarish faoliyatida tutgan urni qanday?	
5.	Asosiy ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish jarayonining bir-biridan farqi?	
6.	Menejment qonunlari deganda nimani tushunasiz?	
7.	Menejmentning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?	
8.	Suv xo‘jaligi tashkilotlari qanday ob’ektlarni qurishga ixtisoslashgan bo‘ladi?	

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi:

1. Tinglovchilar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantiriladi.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari va ularga yuriqnoma berilishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham mulokatda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.


«Davra suxbati» munozarasini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma

1. So‘zga chiqqanlarni diqqat bilan bo‘lmasdan tinglang.
2. Ma‘ruzachining fikriga qo‘shilmang, o‘z fikringizni bildirishga ruxsat so‘rang.
3. Ma‘ruzachining fikriga qo‘shilsangiz, ko‘rib chiqilayotgan masala bo‘yicha qo‘shimcha fikr bildiring.


1-Topshiriq. Ishlab chiqarishni boshqarishda maqsadini amalga oshirish bo‘yicha vujudga keladigan muammolar.

“Baliq skeleti” texnikasi

Ushbu texnologiya muammolarning echimini topishga qaratilgan. YUqori qismida ichki va tashqi omillar turi yozilsa, pastki qismida misollar bilan izohlanadi.



2-Topshiriq. Ishlab chiqarishni boshqarishda qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?



3-Topshiriq: Menejment qonunlari deganda nimani tushunasiz?
Sizning fikringiz?

FSMU texnologiyasi yordamida yo‘naltiruvchi tavsiyalar asosida eching:

Savol	Menejment qonunlari deganda nimani tushunasiz? Sizning fikringiz?
(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M)-Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

Mavzu bo‘yicha xulosa. Menejment jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Nazariy jihatdan tushunmay va asoslanmagan holda birorta yirik amaliy masala hal etilishi mumkin emas. Nazariya yangilanishning muhim

usulidir. Fan esa voqelik haqida ob'ektiv bilimlarni o'rganish va tartibga solishga qaratilgandir. Bilimlarni tartibga solinishi qonunlarda ifodalanadi.

Qonun - falsafiy kategoriya bo'lib, borliq voqealarning barqaror, takrorlanuvchan aloqasi va munosabatini, hodisalar yuz berishining aniq tartibda bo'lishiga olib keluvchi tomonlarini aks ettiradi. Qonunlarni bilish rivojlanishning ob'ektiv yo'nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. SHu sababli iqtisodiyotni boshqarish qonunlarni bilish, ularni amalda ustalik bilan qo'llay olishga asoslanishi kerak.

Umumiy falsafiy qonunlar materiya, harakat, makon, zamon, mikdor, sifat, sabab, oqibat, shakl, mazmun kabi kategoriyalar vositasida ifodalanadi. Iqtisodiy nazariya qonunlari iqtisodiy kategoriyalar vositasida (mulk, ishlab chiqarish, talab, taklif, taqsimot, ayirboshlash, qiymat, narx, foyda, tovar, pul, muvozanatlanish) ifodalanadi

2-Amaliy mashg'ulot

Inson resurslarini boshqarish

Ishdan maqsad: Inson resurslarini boshqarish, tashkiliy madaniyat, etakchilik (liderlik) va boshqaruv uslubi, jamoaviy ish, ta'sir, o'zgarish va stress. Boshqaruv axborot tizimlari haqida o'rganish

Metodik ko'rsatma: Boshqaruv mehnatinig mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari (kompleks xarakterga ega bo'lishi, tizimli yondashish, ixtisoslashish, barqarorlik, me'yoriy xujjatlarga asosan boshqarish, ijodiy yondashuv va uning maqsadga yo'naltirilganligi). Mehnatga haq to'lashni tashkil etish va unga qo'yilgan talablar. Mehnat natijalariga qarab rag'batlantirish. Mehnatga haq to'lash usullari va tamoyillari. Mehnat taqsimoti va mehnat kooperatsiyasi. Boshqaruv mehnatini mexanizatsialash. Mehnatni normalash. Boshqaruv mehnatining samaradorligini oshirish yo'llari.

Tayanch iboralar: *Ratsional, mehnat taqsimoti, komplektnost', reglamentatsiya, ijodiy yondashuv, mehnat kooperatsiyasi, mehnat motivatsiyasi, universal, vaqtbay, ishbay, ijtimoiy adolat, mehnatni normalash, boshqaruv normasi, vaqt normasi, delegirovatsiya, riteignost', proporsional, parallel.*

«Blits-so'rov» savollarga javob bering.

№	Savollar	Javoblar
1.	Suv xo'jaligi tizimida kadrlarning tutgan o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?	
2.	Ishlab chiqarishni boshqarishda kadrlar tizimini qanday tushunasiz?	

3.	Lavozimlar bo'yicha joy almashish jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi?	
4.	Kadrlar zaxirasini shakllantirish manbalarini izohlab bering?	
5.	Mehnat resurslarini boshqarishni qanday tushunasiz?	
6.	Mehnat resurslarini boshqarishning asosini nima tashkil etadi?	
7.	Mehnat resurslarini boshqarishning dolzarb muommolari nimalardan iborat?	
8.	Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni qanday tushunasiz?	

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi:

1. Tinglovchilar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida o'gohlantiriladi.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari va ularga yuriqnoma berilishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham mulokatda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

«Davra suxbati» munozarasini o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma

1. So'zga chiqqanlarni diqqat bilan bo'lmasdan tinglang.
2. Ma'ruzachining fikriga qo'shilmang, o'z fikringizni bildirishga ruxsat so'rang.
3. Ma'ruzachining fikriga qo'shilsangiz, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qo'shimcha fikr bildiring.


Mustaqil ish uchun vazifa.

1-guruh uchun topshiriq.

Korxonalar va tashkilotlarning rivojlanish darajasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar.

“Baliq skeleti” texnikasi

Ushbu texnologiya muommolarning echimini topishga qaratilgan. YUqori qismida ichki va tashqi omillar turi yozilsa, pastki qismida misollar bilan izohlanadi.



2-guruh uchun topshiriq.

“Kadrlar menejmenti to‘g‘risida nimalarni bilasiz?”

Savol	Kadrlar menejmenti to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M)-Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

3-guruh uchun topshiriq.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishni afzalliklari va kamchiliklari

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
?	?

--	--

Mavzu bo‘yicha xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar o‘rni g‘oyat o‘sib bormoqda. Bu boshqaruvni demokratlashtirish, boshqaruvning turli tashkiliy – huquqiy shakllariga o‘tish bilan, mustaqil boshqaruv qarorini qabul qilishga qadar zamonaviy rahbar va mutaxassislarni tayyorlash, «inson omili»ning o‘sishi bilan bog‘liqdir.

Mustaqillik sharoitida yakka hokimlikdan demokratik boshqaruvga o‘tildi. Biroq bu bozor xodim bilan ishlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tashkilot uchun kerakli vaqtda, kerakli o‘rinda, zarur miqdorda hamda tegishli malakaga ega bo‘lgan shunday xodimlarga ega bo‘lish muhimki, ular ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish, uning o‘z maqsadlariga erishishi uchun zarur bo‘ladi. Xodimlarni rejalashtirish yuqori mehnat unumdorligini qo‘lga kiritish va ishdan qoniqish hosil qilish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi lozim.


Tashkilotdagi barcha xodimlarning manfaatlarini hisobga olish xodimlarni rejalashtirish vazifalaridan biri hisoblanadi. Xodimlarni rejalashtirish tashkilotdagi umumiy rejalashtirish jarayoniga qo‘shilib ketgan taqdirdagina samarali bo‘ladi.

Mustaqil ish uchun vazifa

1-Toshiriq: Kadrlar ishini takomillashtirish omillarini aniqlang

“Baliq skeleti” texnikasi

Ushbu texnologiya muommolarning echimini topishga qaratilgan. YUqori qismida ichki va tashqi omillar turi yozilsa, pastki qismida misollar bilan izohlanadi.



Kadrlar ishini takomillashtirish

1.Kadrlar siyosatini tubdan takomillashtirish – bu boshqaruv apparatida band bo‘lgan xodimlar sonini qisqartirishdan iboratdir.
2.
3.
4.
5.
6.


2-Toshiriq: Zaxiraga nomzodlarni tanlashning asosiy kriteriyalarini aniqlang

Zaxiraga nomzodlarni tanlashning asosiy kriteriyalari
-Kadrlar zaxiralarini rejalashtirish xodimlarni lavozimlar buyicha ko‘tarish va u bilan bog‘lik bulgan tadbirlarni ishlab chiqish istiqbolli maqsadni aniqlashni talab etadi.
-kasb tayyorgarligi va bilim darajasining mos kelishi;
-
-
-
-
-

3-Toshiriq: Mehnat resurslarini boshqarishning dolzarb muommolari nimalardan iborat?

“Baliq skeleti” texnikasi

Ushbu texnologiya muommolarning echimini topishga qaratilgan. YUqori qismida ichki va tashqi omillar turi yozilsa, pastki qismida misollar bilan izohlanadi.



V. KEYSLAR BANKI

Keys N°1

Boshqaruvga asoslangan stanoklar ishlab chiqarish uchun firma prezidenti marketing tadqiqotlari guruhiga ilgari ishlab chiqarilgan mahsulotni takomillashtirish va bunda uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutishga buyurtma berdi. Topshiriq olgach, tadqiqotlar bo‘limi rahbari xodimlar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi:

1. Guruhini boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish va turli yoʻnalishlar boʻyicha tadqiqotchilar guruhlarini tuzish.

2. Ushbu sohadagi eng malakali mutaxassislardan tashabbuskor guruh tuzish hamda boʻlim faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilab olish.

3. Tadqiqotlarning eng ilgʻor usullari va ishni bajarish bosqichlarini aniqlash:

yuzaga kelgan vaziyatni oʻrganish, mamlakat ichida va xorijda kerakli klassdagi stanoklar tayyorlash boʻyicha maʼlumotlar toʻplash. Patent loyihalarini ishlab chiqish;

tadqiqotlarning ketma-ketlikdagi rejasini tasdiqlash;

yangi stanok modelini ishlab chiqish, uni tanqidiy muhokama qilish hamda bu modelning ilgʻorligi va raqobatbardoshligi haqida yakuniy qaror chiqarish.

Keys N° 2

Qoʻshma korxonada dasturiy boshqaruvga asoslangan stanoklar ishlab chiqaradi. Stanoklarni ommaviy ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilgach, bu mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga chiqarish vazifasi koʻndalang boʻldi. Biroq qoʻshma korxonada Rossiya hududida faoliyat koʻrsatadi, uning xodimlari esa raqobat uchun juda muhim boʻlgan bu masalada unchalik tajribaga ega emas, chunki mahsulot Rossiya hududida va xorijga reja-buyruq asosida joʻnatiladi. Yagona qiyinchilik mahsulotni oʻz vaqtida isteʼmolchiga joʻnatib yuborish edi, xolos.

Hozirgi paytda mahsulotning raqobat kuchli boʻlgan Evropa bozorlariga chiqarilishi sababli korxonada prezidenti sotuv boʻlimiga vaziyatni tahlil qilish hamda tovarni siljitishni jadallashtirish boʻyicha masʼkuluvchi tadbirlarni qoʻllash vazifasini topshirdi. Aniq va muayyan vazifalar ham belgilandi, xususan:

1. Yangi stanok modelini ommaviylashtirish boʻyicha mahalliy reklama organlari qanday ishlashini baholash.

2. Savdo agentlarini attestatsiyadan o'tkazish, ularning ishbilarmonlik xislatlarini baholash va ularning stanoklarni bozorga chiqarishdan qanchalik manfaatdor ekanliklarini aniqlash.

3. Qo'shma korxonada mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi vositachilar doirasini aniqlash.

4. Bozordagi savdogarlar funksiyalarini, ularning mehnati qanchalik intesivligini aniqlash.

5. Korxonada mahsulotini siljitishning eng samarali usullarini tanlash.

6. Qilingan tahlil natijalari bo'yicha oldindan marketing va sotuv bo'limlari xodimlari bilan muhokama qilgandan so'ng korxonada prezidentiga doklad qilish va stanoklarni bozorga siljitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Keys №3

Samarali va normal ish faoliyatini tashkil qilish uchun, xodimlar bo'limi rahbari firma prezidentidan korxonani malakali marketing tadqiqotchi xodimlar bilan ta'minlash vazifasini oldi.

Yangi xodimlar bo'limi funksiyalari boshqa an'anaviy faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar bo'limi funksiyalaridan farq qilishini hisobga olib, prezident belgilangan vazifalarni aniq qilib qo'ydi:

1. Xodimlar bo'limi boshqaruv tuzilmasini tasdiqlash va marketing tadqiqotlari funksiyalarini ishlab chiqish.

2. Xodimlarni tanlash va joylashtirish tamoyillarini, xodimlar malakasini oshirish tizimini, korxonani marketing tadqiqotlari uchun zarur kadrlar bilan ta'minlash tizimini ishlab chiqish.

3. Buning uchun quyidagilarni aniqlash:

kadrlarga bo'lgan talab;

kasb tayyorgarligi darajasi;

mehnatga haq to'lash darajasi.

4. Korxonada jamoasida ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish.

5. Korxonada marketing tadqiqotlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va

ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaratish.

6. Amal qilayotgan ish bilan ta'minlash tizimiga baho berish hamda korxonani marketing tadqiqotlari xizmatchilari bilan ta'minlashning ichki va tashqi manbalarini aniqlash.

Prezidentdan topshirini olgach, xodimlar bo'limi rahbari bir qator vazifalarni bevosita funksional bo'linmalarga topshirdi. Bunda u kiritiluvchi takliflar muhokama uchun xodimlar bo'limi Kengashiga kiritilish lozimligini aytib o'tdi.

Keys N°4

Qo'shma korxonada, boshqa har qanday korxonada kabi, marketing bo'limi va marketing tadqiqotlari guruhini tashkil qilmasdan faoliyat ko'rsata olmaydi. Marketing faoliyat masalasi kutib tura olmasligi sababli qo'shma korxonada prezidenti iqtisodiy masalalar bo'yicha vitse-prezidentga korxonada marketing faoliyatini boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish, marketing bo'limi bajarishi lozim bo'lgan funksiyalarni hisobga olgan holda bo'lim uchun kadrlarni tanlab olish vazifasini topshirdi.

O'z navbatida vitse-prezident marketing bo'limi rahbariga boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish, bo'lim faoliyati turlarini aniqlash va bundan kelib chiquvchi vazifalarni belgilash vazifasini topshirdi:

1. Bo'limni boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish.
2. Kadrlarni tanlash va o'qitish.
3. Marketing bo'limida ichki faoliyat turlarini aniqlash.
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash, material sarfi va yuklama xarajatlarni hisobga olish tartibini belgilash.

5. Tovar zahiralari va ularning aylanmasi tezligi, tovar zahiralarini nazorat qilish usullarini tahlil qilish.

6. Rejalashtirish va nazorat maqsadida marketing tadqiqotlari byudjetini ishlab chiqish:

byudjetni ishlab chiqish maqsadlari;

byudjetni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;

qo'shma korxonaning boshqa bo'limlari bilan marketing bo'limining aloqasi;

kassa byudjeti va undan naqdi pulni boshqarishda foydalanish.

7. Kapital xarajatlar rejasini baholash:

ishlab chiqarishning asosiy vositalariga qo'yilmalar hajmi;

kapital xarajatlarni rejalashtirish;

kapital qo'yilmalar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

kapital xarajatlarni tejashni baholash usullari.

8. Korxonaning marketing faoliyati haqida hisobot tuzish jarayonini ishlab chiqish. Vaziyatli masalani qo'shma korxonaning marketing bo'limi va ekspertlar yig'ilishida ko'rib chiqish hamda uning faoliyati bo'yicha marketing tadqiqotlari asosida tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Vaziyatni tahlil qilish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun 24 soat vaqt ajratiladi.

Кейсни бажариш босқичлари :

- Кейсдаги муаммоларни келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Кейсда келтирилган муаммоларни бартараф қилишда бажариладиган ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Aylanma mablag'lar	Korxonalar tomonidan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan hamda mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq harajatlarga sarflanadigan mablag'lardir. Aylanma mablag'lar -aylanma fondlar (xom ashyo, yoqilgi, ishlab chiqarish ehtiyojlari, tugallanmagan mahsulot va h.k.ga hamda muomala fondlari (tayyor mahsulotlar, bankdagi va korxonadagi pul mablag'lari)ga bo'linadi.	a current asset is any asset which can reasonably be expected to be sold, consumed, or exhausted through the normal operations of a business within the current fiscal year or operating cycle

		(whichever period is longer).
Aksioner	Aksiyalar egasi, aksiyador jamiyat, shirkat a'zosi; aksiyador.	A shareholder (also stockholder) is an individual or institution (including a corporation) that legally owns one or more shares of stock in a public or private corporation.
Aksionerlik jamiyati	Yirik korxonalar, tashkilot va yakka shaxs, ya'ni aksiya egalarning uyushgan shakli. Aksionerlik jamiyati sarmoyasi muomalaga aksiyalarga chiqarish yo'li bilan tashkil topadi jamiyat aksiyalarini sotib oluvchi, ya'ni uning sarmoyasini tashkil etishda qatnashuvchi dividend shaklida daromad olishga haqli.	A corporation is an organization, usually a group of people or a company, authorized to act as a single entity (legally a person) and recognized as such in law.
Aksiya	Aksionerlik jamiyati sarmoyasiga ma'lum bir ulush ko'shilganlik to'g'risida guvohlik beruvchi qimmatbaho qog'oz bo'lib, aksionerlik jamiyati daromadlaridan ma'lum bir foyda (dividend) olish huquqini beradi. Aksiya qimmatbaho qog'ozlar bozorida, yirik kompaniyalarning aksiyalari esa qimmatbaho qog'ozlar birjasida sotiladi va sotib olinadi. Aksiyada ko'rsatilgan qiymat uning bahosi, bozorda sotilish bahosi esa kursi deyiladi. Kompaniya aksiyalarining kursi bozor birja belgilangan narxga bo'lib, odatda, aksiya kursi fond birjalarida belgilanadi va birja axborotlari jurnalida e'lon kilib boriladi.	The stock (also capital stock) of a corporation is all of the shares into which ownership of the corporation is divided.
Bozor	Mol va pullar harakatini ta'minlovchi, ishlab chiqarish bilan iste'mol, sotuvchi bilan haridor o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning murakkab tizimi. Bozor mavjud bo'lishining birinchi va asosiy sharti erkin tadbirkorlikdir. Tovar ishlab chiqaruvchi mustaqil ravishda o'z imkoniyatlariga va bozor talablariga ko'ra ishlab «chiqarishning tuzilishi hamda hajmini belgilashi, ho'jalik yuritishning shakllari hamda usullarini takomillashtirishi kerak. Sotuvchi va xaridor bir-birlarini bozorda topadilar va narx xususida	A market is one of the many varieties of systems, institutions, procedures, social relations and infrastructures whereby parties engage in exchange.

	<p>kelishadilar. Tadbirkorlik erkinligi - bu odamlarning talablar va raqobatdan emas, balki davlatning ho‘jalik yuritish faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvidan erkinlikdir. Pul talabi va bozor raqobati ishlab chiqaruvchini jamiyatga zarur mollarni chiqarishga buyruqlar va qarorlarga qaraganda ancha yaxshiroq majbur qiladi. Bozor mollarni sotish borasidagi iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning majmui sifatida mehnat taqsimoti rivojlangan har qanday iqtisodiy tuzumning muhim tarkibiy qismidir. Bozor ho‘jaligi bozorning xilma-xil turlari mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar foyda olish manfaatdorligiga asoslangan xalq xo‘jaligining samarali ishlab turishini ta’minlovchi iqtisodiy munosabatlar tizimi.</p>	
Bozor infrastruktura si	<p>Bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko‘rsatuvchi har xil sohalaridan iborat. Unga banklar, tijorat banklari, birjalar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, davlatning tashqi savdo mahkamalari, soliq undiruvchi tashkilotlar, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsorsium va boshqalar kiradi. Bozor infrastrukturasini mol ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq moliya-kredit ishlariga sherik topishga, ishchi kuchi yollashiga yordamlashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi. Bozor infrastrukturasini faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil uyushma, tashkilot va firmalardan xam iborat bo‘lib, ular ko‘rsatgan xizmatlari uchun xaq oladilar.</p>	<p>Efficient marketing infrastructure such as wholesale, retail and assembly markets and storage facilities is essential for cost-effective marketing, to minimize post-harvest losses and to reduce health risks.</p>
Bozor mexanizmi	<p>Bozor iqtisodiyotining amal qilishini tartibga solishda va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishda dastak va vositalarning yig‘indisi.</p>	<p>In economics, the market mechanism is a mechanism by which the use of money exchanged by buyers and sellers with an open and understood system of value and time trade-offs in a market tends to optimize distribution of goods and services</p>

		in at least some ways.
Bozor munosabatlari	<p>Sotuvchi va haridor o'rtasidagi munosabatlar. Uning bir qator qoidalari mavjud:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Masalan, erkin, ixtiyoriy va teng huquqli bo'lish. 2. Mavjud narxlar va takliflar asosida yuzaga chiqishi. 3. Haridor va sotuvchi bir-birini o'z ixtiyori bilan tanlashi. 4. Bironta bozor ishtirokchisining monopol huquqga ega bo'lmasligi. 5. Ishtirokchilar o'rtasidagi aloqalar sog'lom raqobatga asoslanishi kerak. 	<p>A market is one of the many varieties of systems, institutions, procedures, social relations and infrastructures whereby parties engage in exchange. While parties may exchange goods and services by barter, most markets rely on sellers offering their goods or services (including labor) in exchange for money from buyers.</p>
Bozor muhofazasi	<p>Milliy bozorning yoki ayrim mollar bozorining davlat tomonidan eksport-importni tartibga soluvchi tadbirlari vositasida himoya qilishi. U chetdan mol keltirishni cheklash, ta'qiqlash yoki boj to'lovini oshirish orqali amalga oshiriladi. SHu sababli boj to'lovlari o'zgarib turadi. Bir necha mamlakat uchun umumiy bozor hosil bo'lgach, bozor muhofazasi uchun o'rin qolmaydi.</p>	Market conservation
Bozor ob'ekti	<p>Bozorga, ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.</p>	Market Objects
Bozor sub'ekti	<p>Bozorning ayirboshlash munosabatlarining qatnashchilari.</p>	The subject of the market
Boshqaruv	<p>Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun faol ijtimoiy tuzilmani yaratishga qaratilgan zarur bo'lgan shart-sharoitni tanlash va optimallashtirish bo'yicha faoliyat. Tashkilot doirasida uzluksiz o'zaro bog'langan hatti-harakatlar yoki vazifalarning umumiy hajmi.</p>	Management
Broker	<p>Mijozlar o'rtasida oldi-sotdini amalga oshishiga ko'maklashuvchi vositachi. Brokerlar odatda mijoz topshirig'iga ko'ra, ular nomidan oldi-sotdi ishlarini amalga</p>	Broker

	o'shiradi. Odatda shaxslar, firma va aksariyat yirik kompaniya hisoblangan tashkilotlar brokerlik vazifasini bajaradilar.	
Valyuta	Biror mamlakatning pul tizimiga asos qilib olingan birlik, shuningdek, pul tizimining turi (oltin, kumush, qimmatbaho qog'ozlar va hakoza) o'z navbatida «valyuta» atamasi xalqaro to'lov muomalalarida qatnashuvchi chet el pullarini belgilash uchun ham ishlatiladi.	Currency
Valyuta kursi	Muayyan mamlakat pul birligining boshqa bir mamlakat pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursining ikki turi mavjud: 1. Qat'iy qayd etilgan. 2. O'zgarib turadigan. Qat'iy qayd etilgan valyuta kursi - valyuta bozorlari va valyuta kursini aniqlash ishida davlatning aralashuviga asoslanadi. O'zgarib turadigan valyuta kursi esa, butunlay valyuta bozoridagi u yoki bu valyutaga bo'lgan erkin talab va taklifga asoslanadi.	Exchange rate
Venchor korxonasi	Biror-bi loyihani amalga oshirish uchun korxonasi va shaxslarning shartnoma asosida birlashishi.	Venture Enterprises is a group of innovative individuals who believe that everyone is competent and valuable
Venchor korxonalar	Fanning salmog'i yuqori bo'lgan sohalariga oid kichik korxonalar bo'lib, ular ilmiy-muhandislik ishlari bo'yicha yangiliklarni yaratish va ularni tatbiq etishga asoslangan bo'ladi.	Venture enterprises
Venchor firmasi	Tijoratchi ilmiy-texnikaviy tashkilot. Ular mahsulotning yangi turlarini yaratish, o'zlashtirish va ishlab chiqarishga joriy qilishda, asosan sarmoyadan tavakkal foydalanish (venchor) hisobiga yangi texnologiyalarni qo'llashga ihtisoslashgan. Yangiliklardan foydalanish, istiqbolli, lekin qaltis loyihalarni amalga oshirish, tez yangilash, asosiy vositalar eskirishini tezroq tiklash va ishlab chikarilayotgan mahsulot turini tez-tez almashtirish venchor firmalarga xos belgi. Venchor firma	Venture firm

	sarmoyasi boshlang'ich manbani ta'sirchilarning shaxsiy jamg'armalari va qarzlarni tashqil qiladi.	
Davlat mulki	Davlat tasarrufidagi mulklar davlat mulkidir. Halq ho'jaligining eng asosiy va ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlari: yoqilg'i, neft va gaz sanoati, elektr energetikasi, yo'llar, temir yo'l, havo va suv transporti, aloqa, suv va gaz ta'minoti tizimi, irrigatsiya inshootlari, ularni qurish hamda foydalanish, milliy havfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan korxonalar davlat tasarrufidadir.	State ownership
Daromad	Insonni mehnati evaziga yoki mulki hisobiga oladigan pul mablag'i summasi. Daromadlar ikkita, ya'ni: a) mehnat evaziga olinadigan; daromad (ish haqi, foyda); b) mulkdan olinadigan daromad (foiz, renta, dividend) turga bo'linadi. Tashkilot ishining yakuniy natijasi.	Income
Daromadlar va xarajatlar balansi	Moliyaviy reja bo'limlaridan biri bo'lib, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarning pul shaklini aks ettiradi.	Income and expense balance
Dasturiy ta'minot	Kompyuter texnikasi vositasida ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va foydalanish dasturiy vositalari yig'indisi.	Software
Diler	Ko'proq o'z nomi va hisobidan mahsulotlarni olib sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki firmalar haqidagi umumlashtirilgan tushuncha. Dilerning foydasi mahsulotni sotib olish va sotish baholari orasidagi farqdan tashkil topadi.	Dealer
Jamoatchilik fikri	Ijtimoiy guruhning umumiy manfaatlariga tegishli ijtimoiy hayot voqealari yoki muammolarga nisbatan ma'lum bir mulohazalari, g'oyalari va tasavvurlari.	Public Opinion
Joriy baholar	Aynan amal qilayotgan baho va tariflar.	Current ratings
Joriy nazorat	Bu ishni amalga oshirish jarayonida bevosita amalga oshiriladigan nazorat protsedurasi.	Current control
Juvonmard	Saxiy, mard, ochiq ko'ngilli.	Samaritan
Zaruriy ish vaqti	Sarflangan ish vaqtining bir qismi. Zaruriy ish vaqti davomida ishchi o'zining yashash sharoitini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qiymatdagi mehnat mahsulotini yaratadi. Zaruriy ish vaqtining umumiy sarflangan ish vaqtidagi ulushi miqdori ishchilarning mehnat unumdorligi darajasi, mehnatning	Required work time

	intensivligi, ish haqi darajalariga bog‘liq bo‘ladi. Zaruriy ish vaqti ishchi sarf etgan jismoniy va aqliy quvvatini qayta tiklash, malakasini oshirish, o‘zi va oila a‘zolarining hayot kechirishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni yaratadi.	
Zaruriy mahsulot	Zaruriy ish vaqti davomida yaratilgan mahsulotga zaruriy mahsulot deyiladi. U ishchi va hodimlarning oladigan ish haqiga to‘g‘ri kelishi yoki rivojlangan mamlakatlardagidek aholi qo‘liga nafaqalar, imtiyozlar ko‘rinishida kelib tushishi mumkin.	Required Product
Zaruriy mehnat	Ishchi va xodimlar tomonidan zaruriy mahsulotni yaratish uchun sarflangan mehnat.	Required work
Identifikatsiya lash	O‘xshash, aynan mos keluvchi.	Identification
Ijara	Boshqa bir kishining mulkini to‘lov evaziga ma‘lum muddat uchun foydalanishga olish. Ko‘pchilik mamlakatlarda er, uy-joy savdo-sanoat binolari, mashina va uskunalarni ijaraga berish va ijaraga olish keng tarqalgan. SHu asosda har ikkala tomon ham daromad oladi. O‘zbekistonda ijara to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Bir (ijarachi) tomondan boshqa (ijarachi) tomonga ijara — shartnomasi bo‘yicha vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun biror mulkni berib turish.	Rent
Ijara mulk	SHartnoma asosida ma‘lum muddatga foydalanish uchun olingan mulk. Er, uy-joylar, bino va inshootlar, mashina va uskunalalar ijara mulk bo‘lishi mumkin.	Property for rent
Iqtisod	Sarf-harajatda ehtiyotkorlik, tejamkorlik.	Economy
Iqtisodiy tahlil	Ish samaradorligini oshirish maqsadida xo‘jalik faoliyatini o‘rganish.	Economic Analysis
Iqtisodiy o‘shish	Mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortishi, ya‘ni aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishning ko‘payib, yaxshilanib borishi. Iqtisodiy o‘shish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi. Iqtisodiy o‘shish – yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning ko‘payishi bilan o‘lchashadi. Iqtisodiy o‘shishning intensiv va ekstensiv turlari mavjud.	Economic growth
Iqtisodiy	Tovar ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha	Economic activity

faoliyat	har qanday faoliyat, shuningdek, bunday faoliyat natijasidan qat'iy nazar daromad olishga qaratilgan har qanday faoliyat.	
Iqtisodiy foyda	Firmaning umumiy foydasi miqdoridan hamma harajatlar miqdorini ayirib tashlash, «sof foyda» tushunchasining sinonimi.	Economic benefit
Investitsiya	Mamlakat ichida yoki tashqarida daromad olish uchun biron-bir korxonaga, firma, tarmoqqa uzoq muddatli sarmoyalar qo'yish.	Investment
Investorlar	O'z mablag'ini investitsiya loyihalari va dasturlariga qo'yadigan yuridik yoki jismoniy shaxslar, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar.	Investors
Injener	Muhandis, injener.	Engineer
Injiniring	Tijorat qoidalariga asoslangan muhandislik maslahat xizmatlari: ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini ko'rib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish.	Engineering
Innovatsiya	Yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish; yangi texnologiyaning birinchi marta tijorat asosida qo'llanishi. Intensiv iqtisodiy o'sish - resurslardan yanada samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o'sish. Uning asosiy omili fan-texnika taraqqiyoti. Masalan, biror bir-korxonaga mahsulot hajmini yangi sex qurish bilan emas, balki ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyotining oxirgi talablariga javob beradigan dastgoh, yangi texnologiyalar bilan qayta jihozlash bilan erishadi, ya'ni maqsadga ishlab chiqarish maydonini kengaytirish hisobiga emas, balki unda qo'llaniladigan resurslarni sifatini oshirish orqali erishilmoqda.	Innovation
Integrallash	Bir butun yaxlitlikka birlashtirish. Masalan, iqtisodiy integrallashtirish xo'jalik faoliyatini baynalmilallashtirish shaklini bildiradi.	Integration
Infrastruktura (lot. Quyi tuzilish)	Turli xil korxonalarining ho'jalik yuritishi, aholining ishlashi, yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishga xizmat qiladigan sohalar majmui. Ishlab chiqarish infrastrukturasi: transport aloqasi, elektr tarmoqlari, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar kiradi.	Infrastructure (Lot Substructure)
Ipoteka	Qarzga pul olish maqsadida ko'chmas mulk, er va qurilish binolarini garovga	Mortgage

	qo'yish. Bunda garovga qo'yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi.	
Ish vaqti	Ishchining mehnat burchini bajarishi lozim bo'lgan vaqt. Ish vaqti – ish soati, kuni, haftasi, oyi va yili bilan o'lchanadi. Ish vaqti zaruriy va qo'shimcha vaqtlarga bo'linadi.	Working hours
Ish hajmini kengaytirish	Bajariladigan ish hajmini kengaytirgan holda ishni qayta tashkil etish.	Expand your business scope
Ish haqi	YOllanma-xodim tomonidan pul shaklida olinadigan haqi tushuniladi, ish kuchi egasining yashash vositalari narxini ifodalaydi.	Wage
Ishga layoqatlilik	SHaxsning belgilangan darajada maqsadga muvofiq faoliyatni bajarishdagi potensial imkoniyati.	Entrepreneurship
Ishlab chiqarish vositalari	Er, o'rmon, qazilma boyliklari, xom ashyo, binolar, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi.	Manufacturing tools
Ishlab chiqarish munosabatlari	Kishilar o'rtasida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.	Manufacturing relations
Ishlab chiqarish omillari	Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi unsurlarning yig'indisi bo'lgan ishchi kuchi, mehnat vositalari, mehnat predmetlarini o'zaro ta'sirining murakkab tizimidan iboratdir. Ish kuchi ishlab chiqarishning shaxsiy omilini tashkil etsa, ishlab chiqarish vositalari moddiy yoki ashyoviy omilini tashkil etadi.	Factors of production
Ishlab chiqarish rentabelligi	Korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini, ishlab chiqarish manbalaridan foydalanish darajasini ta'riflovchi muhim iqtisodiy ko'rsatgich. Ishlab chiqarish rentabelligi korxonaning oylik, uch oylik yoki yillik umumiy balans foydasining asosiy ishlab chiqarish fondlari va me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan foydalaniladi.	Production efficiency
Ishlab chiqarish samaradorligi	Ishlab chiqarishning natijasi, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati hajmini ishlab chiqarish harajatlari qiymatiga bo'lgan nisbatida ifodalanadi.	Production efficiency
Ishlab chiqarish usuli	Jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida ishlab chiqarish munosabatlari hamda bu munosabatlarga	Production method

	xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning birligini va o'zaro ta'siri birgalikda ishlab chiqarish usulini tashkil etadi. Insoniyat tarixida ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalistik, sotsialistik ishlab chiqarish usullari mavjud.	
Ishlab chiqarish funksiyasi	Tashkilot tomonidan tashqi muhitga taqdim etiladigan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati turlari.	Production function
Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi	Korxonalar yoki hududning bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida hudud, tarmoq va korxonalar o'rtasida ichki mehnat taqsimoti shaklidir. Ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish mahsulotining, texnologik jarayonning, asbob-uskunalarining va tegishli mutahassisliklarning bir xilligi bilan tavsiflanadi.	Specialization of production
Kapital (sarmoya)	Soxibkor tomonidan daromad keltirish uchun yo'naltirilgan sarmoya, vosita, ya'ni egasiga keltiruvchi qiymat. Kapitalning pul, unumli va tovar shakllari bor. Tadbirkorlar tasarrufidagi mablag'lar ham sarmoya hisoblanadi. Mutaxassis qiymat sarflab o'rgangan bilimi, orttirgan tajribasi ham kapital bo'lishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining aksiya va obligatsiyalarini sotishdan tushgan puli kapitalni tashkil qiladi. Iqtisodiyot nazariyasida kapitalning doimiy, o'zgaruvchi, asosiy va aylanma, sanoat kapitali, savdo kapitali, sanoat kapitali kabi shakllari mavjud.	Capital
Kliring	O'zaro talab va majburiyatlarni qoplashga asoslangan, mahsulotlar, qimmatbaxo qog'ozlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitob tizimi.	
Kompyuter (hisoblash) tarmog'i	Aloqa kanallari orqali yagona tizimga bog'langan kompyuter va terminallar majmuasi.	Computer (computing) network
Konsepsiya	Qarashlar tizimi, jarayonlar voqeasini u yoki bu holda tushunish.	Concept
Konsern	Bir-biri bilan yaqin alokada bo'lib, odatda rasmiy mustaqilligini saqlab qoladigan, yagona idora etish markazidan boshqarilib turadigan bir gurux, korxonalar birlashmasi. Bir konsern tarkibiga sanoat, transport, savdo korxonalarini va bank uyushgan	Concern

	bo'lishi mumkin. Konsern tarkibidaga korxonalar ko'p sohalarda faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirgan holda hamkorlikda tashkil etadilar. Bir yoki bir necha tadbirkorlarga moliyaviy tobelik asosida korxonalarning nizomiy birlashuvi.	
Korporatsiya	Biron maqsad asosida, masalan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki kommersiya faoliyatlarini amalga oshirish uchun uyushgan jamoa birlashmasi, aksionerlik jamoasi.	Corporation
Korxonona	(firma) amaldagi qonunlar asosida mustaqil ravishda foyda olish maqsadida faoliyat yurituvchi ho'jalik shakli. Korxonona ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, vositachilik va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lib, hususiy, aksionerlik, jamoa, kooperativ, davlat yoki aralash mulk shakllarida bo'lishi mumkin.	Enterprise
Korxonona mulki	Qanday mulkchilik shaklida bo'lishidan qat'iy nazar korxonaning ihtiyoridagi barcha mol-mulk. Ular asosiy va aylanma fondlar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zahiralarning yig'indisidan iborat bo'lib, uning tarkibiga tayyor mahsulotlar, materiallar, kelgusi davr harajatlari, hisobot davridagi ishlab chiqarish harajatlari, korxonada bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmat va boshqalar kiradi.	Enterprise Ownership
Korxonona fondlari	Ho'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun korxonona ihtiyoridagi qiymatga ega bo'lgan moddiy ashyolar, binolari, uskunolari, pul mablag'laridan iborat. Korxonona fondlari ishlab chiqarish jarayonida qatnashish o'rniga ko'ra asosiy va aylanma fondlar bir-biridan farqlanadi.	Corporate Funds
Korxonaning sof daromadi	Korxonona xodimlarining mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning pulda ifodalanishi, mahsulotning sotish narxi qiymati bilan to'la tannarxi o'rtasidaga farq korxonona sof daromadi yalpi daromaddan mehnatga haq to'lash fondi tashkil etilgandan keyin qoladigan qismidir.	Net income of the enterprise
Kredit	Pul yoki tovar shaklidagi ssuda.	Credit
Kreditor	Kredit beruvchi jismoniy shaxs, firma yoki moliyaviy institut.	Creditor
Ko'chmas mulk	Er uchastkalari, o'rmonlar, binolar, inshootlar, alohidalashgan suv ob'ektlari, davlat qaydidan o'tgan havo va dengiz kemalari, kosmik ob'ektlardir. Ko'chmas	Real estate

	<p>mulkning asosiy belgisi er hisoblanadi. Qonun bo'yicha ko'chmas mulkning tarkibiga korxonalar va xonadonlar ham kiradi.</p>	
Lizing	<p>Dastgohlarni, uzoq muddat foydalanadigan tovarlarni, ko'chmas mulkni uzoq muddatga keyinchalik sotib olish huquqi bilan ijaraga olish uchun quyilmalarning moliyalashtirish mahsus shakli.</p> <p>Mashina va uskunalarni uzoq muddatga ijaraga berish. Ijarachining tovarga bo'lgan mulkiy huquqi saqlangan holda mablag' ajratishini moliyaviy ta'minlash va sotishni jonlantirishga nisbatan yangi usuli. Lizing kompaniya bitim oxirigicha ijarachining ijara mulkiga egaligini ta'minlash sharti bilan mashina, jihozlar. EHM, ulov vositalari omborxonalarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun ijaraga oladi.</p>	Leasing
Litsenziya	<p>Davlat organlari tomonidan beriladigan xo'jalik faoliyatini boshlash, mahsulotni frangayzor (mayda mulkdor) qobilida sotish huquqini beruvchi rasmiy hujjat.</p>	License
Loyihali tashkiliy tuzilma	<p>Aniq belgilangan maqsadga erishish uchun shakllantiriladigan vaqtinchalik tashkiliy tuzilma.</p>	Projected organizational structure
Loyihani amalga oshirishni tashkil etish	<p>Aniq belgilangan maqsadni bajarish uchun tashkil etilgan vaqtinchalik tuzilma.</p>	Organization of project implementation
Marketing	<p>Bozorni o'rganishga tayanib boshqarishga ilmiy qarash: bozor talabi, xaridorlarning tovar va xizmatlarga talab hamda ehtiyojlarini moslashtirgan holda korxonalarining ishlab chiqarish va sotish faoliyatini tashkil qilish tizimi. Kompaniyalar tomonidan tovarni ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish uchun oldindan bozor holatini o'rganishda olib boriladigan tadqiqotlar va tadbirlar yig'indisi. Dastlab marketing nazariyasi bozorni o'rganish bo'yicha uslublar sifatida o'ziga xos amaliy va nazariy masalalarni jonlantirgan. Marketingni turli faoliyat sohalari va o'z strategiyasi, prinsiplari va qoidalari mavjuddir. Marketing asosan ikki vazifani bajaradi: bir tomondan mavjud va potensial talablarni qondirishga ishlab chiqarishni yo'naltirish, ikkinchi tarafdan, talabni tarkib toptirish va rag'batlantirish,</p>	Marketing

	ya'ni talabga qarab ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, haridor talabini o'z ishlab chiqarish yo'nalishiga qaratish.	
Mahsulot tannarxi	Korxonaning mahsulotni yaratish uchun qilingan sarf harajatlarining puldagi ifodasi. Mahsulot tannarxi korxonada iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lib, o'zida mahsulot yaratish uchun qilingan xom ashyo, yoqilg'i, moylash materiallari, mehnat, elektr energiyasi sarfi, shuningdek, bino, inshoot va uskunalarning ishlab chiqarish jarayonida sotilgan qismi qiymatini ifodalaydi. Sanoatda tannarxning sex, korxonada va to'la yoki kommersiya miqdori alohida farqlanib, harajatlar tarkibi har bir sanoat tarmoqlarida o'ziga hos xususiyatga ega bo'ladi.	Product cost
Menedjer	Ishlab chiqarish samaradorligi va daromadini oshirish tamoyillari, uslub va tadbirlari majmuidan foydalana oladigan shaxs.	The manager
Menedjment	Eng samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida ma'naviy, moliyaviy, moddiy va xom ashyo manbalaridan foydalanishni bilish san'ati.	Management
Menejerlar	Boshqaruvchi. Korxonada va kompaniyada egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchilar.	Managers
Menejment	Xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun boshqarish, rahbarlik qilish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish san'ati, usullari, shakllari va vositalari majmuidan iborat fan. Boshqarish, mudirlik; tashkil etish. Zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish), shuningdek, ishlab chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish; boshqarish to'g'risidagi fan.	Management
Mehnat	Kishilarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo'lib, ular ana shu faoliyat yordamida moddiy ashyolarni va tabiat kuchlarini o'zgartirib o'z ehtiyojlarini qondirishga moslashtiradilar.	Work
Missiya	1) mas'uliyatli vazifa, topshiriq; 2) bir davlatning ikkinchisiga elchi boshchiligidagi doimiy diplomatik vakolati; 3) missionerlik tashkiloti.	Mission
Modernizatsiy	Uskuna va texnikani zamonaviylashtirmoq,	Modernization

a	zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, yangilash.	
Moliya	Maqsadli pul foizlarini hosil etish, jamlama, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo boʻladigan iqtisodiy munosabatlar majmui; pul mablagʻlarini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish, ishlatish tizimi.	Finance
Monopoliya (yunoncha – tanho sotaman)	Iqtisodiyotning biron-bir sohasidagi tanxo hukmronligi. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining yagona yoki ozchilik korxonalar, tadbirkor shaxslar yoki davlat qoʻlida toʻplanishi natijasida paydo boʻladi. Monopol korxonalar hukmronlik mavqeidan foydalanib, sarflarni kamaytirish monopol baho belgilash orqali foyda koʻrish, raqobatning yoʻqligi yoki zaifligidan bozorda oʻz izmini oʻtkazishi mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababi davlatlar antimonopol chora-tadbirlar joriy etadilar.	Monopoly (Greek - Single)
Mulkchilik	Kishilar oʻrtasida ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish va yaratilgan mahsulotni oʻzlashtirish yuzasidan paydo boʻlgan, tarixan aniq bir shaklda namoyon boʻluvchi munosabatlar. Mulk obʻekti boʻlib moddiy va madaniy boyliklar, ixtirolar, fan yutuqlari, ishchi kuchi va shunga oʻxshashlar hisoblanadi. Mulk – subʻekti jamiyatda maʼlum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega boʻlgan kishilar boʻlib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki guruhga birlashgan boʻladi. Mulkchilikning asosiy boʻgʻini – bu ishlab chiqarish vositalariga boʻlgan mulkchilik, egalik. Ishlab chiqarish vositalari kimniki boʻlsa, unda yaratilgan mahsulot ham shunga tegishli boʻladi. Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil boʻlishligini talab qiladi. Tovar muayyan mulk obʻekti boʻlgandagina oldi-sotti qilinadi. Mulkning turlari davlat, jamoa, kooperativ, aksionerlik, ijara, hususiy mulk va boshqa shakllar. Mulk davlatning qonun hujjatlarida yuridik qayd etilib, qonunlar asosida tartibga solinadi.	Property
Narx indeksi	Inflyasiya darajasini, yaʼni maʼlum davrda narxlar qanday kattalikka oshganini koʻrsatuvchi koʻrsatkich. Narxlar darajasi	Price Index

	indeks shaklda ifoda etiladi. U shu davrga ma'lum tovarlar va xizmatlar to'plamining jami narxi bilan baza yildagi tovar va xizmatlarining narxi o'rtasidagi nisbat bilan hisoblanadi. Boshlang'ich daraja «baza yil» hisoblanadi. SHu yil uchun baholar - indeksi har doim 100% teng bo'ladi.	
Narx (baho)	Tovar qiymatining pulda ifodalanishi. Narxni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor sharoitida u aniq qiymatdan yuqori yoki kam bo'lishi mumkin, bu esa bozordagi o'sha tovarga bo'lgan talab va uning taklifiga bog'liq bo'ladi. Tovar narxining darajasi, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi sifati va boshqa tovarlar o'rnini bosa olishi, muomaladagi pulning harid quvvatiga ham bog'liq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi: chakana, ulgurji, xalqaro, auksion, kelishuv, davlat belgilagan yoki davlat boshqarib turadigan narxlar.	Price
Protseduralar	Ma'lum bir holatda qanday hatti-harakatlarni amalga oshirish bayoni.	Procedures
Rag'bat	Sabab nazariyasi doirasida insonga qadrlil hisoblangan barcha narsalar.	Promotion
Rag'bat	SHaxs ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi ta'sir.	Promotion
Rag'batlantirishga asoslangan hokimiyat	Ijrochining ishonchiga asoslangan hokimiyat. YA'ni, ta'sir ko'rsatuvchi shaxs ijrochining faol ehtiyojini qondirish imkoniga ega.	Authority based on incentives
Raqobat	Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va foydali qilib sotish uchun kurash. Raqobatning asosiy maqsadi, bozor sub'ektlari turli bozorlarda o'z mavqelarini mustahkamlashdir. Raqobat - bozor mexanizmining zarur va tarkibiy elementi hisoblanadi.	Competition
Rejalashtirilgan qaror	YAngi yoki noma'lum bir sharoitda, noma'lum ta'sir omillari bilan bog'liq holatlarda yuzaga keladigan tanlov yo'li.	Unprecedented decision
Rejalashtirish	Maqsad va qarorlarni tanlash jarayoni.	Planning
Reyting (inglizcha «rating» — baho, tartib, tasnif)	Belgilangan shkala bo'yicha biror-bir hodisaning sub'ektiv bahosini anglatuvchi atama.	Rating
Reklama	Tovarlarni bozorda harakatlantirish (sotish)	Advertising

(ovoza qilish)	uchun ommaviy axborot vositalari yordamida iste'molchiga aniq maqsadli ta'sir ko'rsatish.	(dissiminate)
Resurs	Qo'r, manba, boylik (vosita, chora, iloj, imkoniyat)	Source
Standartlashtirish	Bir-birining o'rnini bosa oladigan detallar va tugunlarni ishlab chiqarish, almashtirish jarayonida foydalaniladi.	Standardization
Strategik rejalashtirish	Rahbar tomonidan qo'llanadigan hatti-harakat va qarorlar to'plami. U tashkilotga o'z maqsadiga etishishga ko'maklashadigan aniq strategiyani ishlab chiqishga yo'llanadi.	Strategic planning
Strategiya	Maqsadga etishishning umumiy, har tomonlama rejasi. Tashkilot maqsadiga etish uchun intiluvchi rahbarlar hatti-harakatining obrazi.	Strategy
Strategiyani amalga oshirish	Boshqaruv hatti-harakatlarining to'liq majmui, uning bajarilishini va belgilangan natijalarga erishishni qo'llab-quvvatlash.	Implementing the Strategy
Stress (ingl. Stress — bosim, zo'riqish)	Insonning turli ekstremal ta'sirlarga javobi sifatida yuzaga keluvchi keng holatini anglatish uchun foydalaniladigan atama.	Stress
Suv munosabati	Suvdan foydalanish jarayonida odamlar va tashkilotlar orasidagi, shu foydalanishda xalq ho'jaligini: eng katta samaradorligini qondiruvchi munosabatlar.	Water attitude
Suv ob'ekti	Daryo, hovuz (ko'l, suv ombori), suv manbasi, suvli kanal, er osti suvi, muzlik va boshqa suv to'plami.	Water object
Suv oqimi	Oqayotgan suvlar to'plami. Bu atama odatda tabiiy o'zakda oqayotgan suvga nisbatan, ochiq nav yoki berk quvurda oqayotgan suvga nisbatan, ba'zan esa er osti suv oqimlari to'plamiga nisbatan ishlatiladi.	Water flow
Suv rejimi (tartibi)	Daryolarda, ko'llarda botqoqlikda va boshqa suv ob'ektlarida suvning sathi va hajmining ma'lum vaqt davrida va maydonda o'zgarishi.	Water regime (mode)
Suv sarfi	Vaqt birligi ichida oqayotgan suv kesimi orqali oqib o'tuvchi suv hajmi.	Water consumption
Suv sarfi debiti	Manbadan vaqt birligida (burg'alangan quduq, buloq, quduq) olish mumkin bo'lgan suv miqdori.	Water consumption
Suvdan samarali foydalanish koeffitsienti	Ekinlardan samarali foydalangan suv miqdorining sug'orish uchun berilgan umumiy suv miqdoriga nisbati.	Water Efficient Use Ratio

Suvdan unumli foydalanish	Sugʻoriladigan ekinlarni parvarishlash va ulardan yuqori hosil olish uchun iqtisodiy jihatdan oʻrinli boʻlgan suv hajmi.	Water Efficient Use
Sugʻorish suvidan samarali foydalanish koeffitsienti	Ildiz rivojlanadigan qatlamda toʻplangan suv miqdorining sugʻoriladigan dalaga berilgan suv miqdoriga nisbati.	Effective use of irrigation water
Sugʻorish tizimining foydali ish koeffitsienti (fik)	Sugʻorishda suvdan foydalanish darajasini tavsiflovchi koʻrsatkich, har bir kanal turkumi uchun shu kanalning ohiridagi suv sarfining boshida olgan suv sarfiga boʻlgan nisbati bilan aniqlanadi. Butun sugʻorish tizimining FIK ti, shu tizimga qarashli tarmoqlarning FIK larining oʻzaro koʻpaytmasiga teng.	The efficiency of the irrigation system
Tadbirkor rahbar	Menedjer. Oʻz korxonasida ijobiy oʻzgarishlarni amalga oshirgan va takomillashtirishni tatbiq etgan holda yangi imkoniyatlarni qidiruvchi hamda belgilangan tavakkalga borib ish koʻruvchi menejer.	Businessman
Taktika	Odatda oʻrta boʻgʻin rahbarlar darajasida ishlab chiqiladigan maqsadlarga erishish uchun qoʻllaniladigan qisqa muddatli strategiya.	Tactics
Talab	Isteʼmolchilarning turli xil tovarlar, ish, xizmat, pul mablagʻi va boshqa obʻektlarga boʻlgan toʻlovga qodirilik ehtiyoji.	Demand
Talab	Tovar va pullik xizmatlarga boʻlgan talablarning xaridorlar pul mablagʻlari bilan taʼminlangan qismi.	Demand
Tanqislik	Mablagʻ, mahsulot etishmasligi.	Defiance
Texnologiya	Tovar va hizmatlarni ishlab chiqarish texnikasi va usullari. Uning yordamida ishlab chiqarish omillari (resurslari) mehnat jarayonida birikadi. Bozor iqtisodiyoti talabi, ishlab chiqarishni tashkil etish nuqtai nazaridan, yuqori samara beradigan texnologiyani qoʻllashni hohlaydigan va bunga qodir boʻlgan firma va korxonalar faoliyat koʻrsatishlari lozim. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyani tatbiq etish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.	technology
Texnopolis	Yirik dorilfunun yoki tadqiqot markazi atrofida joylangan ilmtalab firmalar, tadqiqot laboratoriyalari. Ilmtalab xizmatlar koʻrsatadigan vositachi firmalardan tarkib	technology parks

	topgan tarmoqlararo ilmiy-texnologik majmua. Texnopolis — hozirgi bozor tizimining muhim tarkibi. Texnopolis doirasida muntazam ravishda ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish g'oyalar bilan almashinuv bo'ladi.	
Tizim	O'zaro bog'langan, bir necha qismlardan iborat yaxlitlik. Tashkilot ochiq tizim sanaladi, chunki, u tashqi muhit bilan dinamik tarzda o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ma'lum bir o'zaro aloqada bo'lgan elementlarning (buyumlar, xususiyatlar, belgilar, ya'ni moddiy mazmundagi har qanday diskret hosilalar) mazmun.	System
Faoliyatni baholash	Belgilangan vazifani bajarganlik to'g'risidagi ma'lumotni to'plash orqali xodim ishini baholashning rasmiy protsedurasi.	Performance Assessment
Firma	Foyda olish maqsadida resurslardan foydalanib, tovar va hizmatlar ishlab chiqaruvchi tashkilot, bitta yoki bir necha korxonalariga egalik qiladi va boshqaradi.	Company
Foyda	Sof daromadni asosiy shakli, mahsulotni sotiladigan bahosi va uning tannarhi o'rtasidagi farq asosida vujudga keladi. Foyda korxonalar faoliyatining samaradorligini ko'rsatuvchi umumiy ko'rsatkichdir.	Benefits
Foyda normasi	Ishlab chiqarilgan qiymat ko'rinishidagi foyda massasini ishlab chiqarish harajatlariga bo'lgan nisbatini foizda ifodalanishiga aytiladi.	Benefit rate
Foydalilik me'yori	Inshootning foydaliligi (rentabelligi)ni aniqlash uchun mezon sifatida qabul qilingan ma'lum qiymat. Inshoot foydali bo'lishi uchun foyda me'yori foydalilik me'yoriga teng yoki undan ortiq bo'lishi kerak.	Usage standard
Foydasiz hajm	Amaliy jihatdan suvini chiqarib (tashlab) bo'lmaydigan suv ombori hajmi.	Not useful dimension
Fyucher operatsiyalari	Tovar oldi-sotdisiga qaratilgan qimmatbaho qog'ozlar bitimi.	Securities trading
Xolding kompaniya	YUridik jihatdan mustaqil bo'lgan bank va firmalarga ta'sir ko'rsatish va operatsiyalarni nazorat qilish maqsadida aksiyalarning nazorat paketiga egalik qiluvchi aksionerlik jamiyati.	Holding company
Xususiylashtirish	Ishlab chiqarish mablag'i hisobiga mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiy kompaniyalarga yoki alohida jismoniy	Privatization

	shaxslarga berish.	
SHartnoma	Ikki yoki undan ortiq shaxsning bitimi, kelushi.	Agreement
Yuqori bo'g'indagi rahbar	Umuman tashkilot va qisman ushbu tashkilotning ma'lum bir bo'linmasi hal etishiga javobgar rahbar.	Leader in the upper level
YAkka rahbarlik	Tashkilotning tuzilish tamoyili. Unga ko'ra, xodim (ishchi) faqat bitta boshliq buyrug'iga bo'ysunadi va faqat uning oldida mas'ul bo'ladi.	Autocratic leader, authoritarian
YAlpi daromad	Xo'jalik faoliyatining yakuniy natijasi bo'lib, mahsulot sotilishidan keladigan tushumdan hisob raqamiga kelib tushadigan pul mablag'ini bildiradi.	Gross Income

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Maxsus adabiyotlar

1. Digital economy: impacts, influences, and challenges / Harbhajan Kehal, editor, Varinder P. Singh, editor. Includes bibliographical references and index. ISBN 1-59140-363-4 (hardcover) -- ISBN 1-59140-364-2 (pbk.) -- ISBN 1-59140-365-0 (ebook).
2. Lapidus L.V. Sifrovaya ekonomika. Upravlenie elektronnyim biznesom i elektronnoy kommersiey. Uchebnik. M.: Infra – M. 2019. - 479 str.
3. S.S.G‘ulomov, O.M.Abdullaev, R.Ayupov. Raqamli iqtisodiyot (kriptoalyuta va blokcheyn). O‘quv qo‘llanma. T.: Moliya, 2019. – 354 b.
4. Pindyck S. Robert, Daniel I. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. –Copyright 2018, Pearson Education Limited. 2018.
5. Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2015. P. 604.
6. Salimov B., Mustafakulov Sh., Salimov D. Mikroiqtisodiyot masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar. -T.: Iqtisodiyot, 2018.
7. Salimov B.T., Yusupov M., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot: Darslik. 2019. - 365 b.
8. Dean, D. And Zwillenberg, P., (2012). The Internet Economy in the G-20.bcg.persperctives.
9. The New Digital Economy. How it will transform business. Oxford economics. (pp.1-7).

IV. Internet saytlar

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
11. <http://nu.edu.kz> - Nazarbaev Universitet
12. <http://www.wiut.uz> - Westminster International University in Tashkent
13. <http://www.msu.ru> - Lomonosov Moscow State University
14. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
15. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
16. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

ТИҚХММИ "Менежмент" кафедраси доценти А.Максумханова томонидан институт хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази "Сув хўжалиги менежменти" модули бўйича тайёрланган Ўқув услубий мажмуага

ТАҚРИЗ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида» 2019 йил 27 августдаги ПФ-5789-сон Фармонига асосан 2019 йилнинг октябридан олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизими амалиётга жорий этилди.

Буларга асосан, олий таълим муассасалари педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курслари ташкил қилиниб, уларнинг мақсади, педагог кадрларнинг Ўқув-тарбиявий жараёнларини юксак илмий-методик даражада таъминлашлари учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини мунтазам янгилаш, малака талаблари, ўқув режа ва дастурлари асосида уларнинг касбий компетентлиги ва педагогик маҳоратини доимий ривожланишини таъминлашдан иборат.

ТИҚХММИ хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази "Сув хўжалиги менежменти" модули бўйича ЎУМ нинг вазифаси тингловчиларга сув хўжалигини бошқаришнинг замонавий усулларини, менежерлар қобилияти ва истеъдодини ривожлантириш йўлларини ўргатишдан иборат.

"Сув хўжалиги менежменти" модулининг мақсади иқтисодийтни модернизациялаш шароитида педагог кадрларга сув хўжалиги тармоқларидан фойдаланишни оқилона ташкил этиш ва бошқаришни, ташкилий тузилмаларни такомиллаштиришни, қарорлар қабул қилиш технологиясини, бошқариш усулларидан вазиятга қараб фойдаланишни билишга қаратилган.

"Сув хўжалиги менежменти" курсида тингловчи сув хўжалиги ташкилотидан инсон ресурсларини бошқариш, ташкилий маданият, етакчилик (лидерлик) ва бошқарув услубларини танлаш; сув хўжалиги ташкилотидан ўзгаришларни тушуниши ва ўзгариш концепциясини қўллаш; сув хўжалиги корхоналари бошқарув фаолиятини таҳлил қилиш ва бошқарув қарорларини қабул қилишда иқтисодий самарадорликка эришиш каби кўникма ва малакаларини эгаллаши зарур.

Умуман олганда ТИҚХММИ хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази "Сув хўжалиги менежменти" модули бўйича ЎУМ, унга қўйилган талабларга тўлиқ жавоб беради.

"Менежмент" кафедраси мудири, и.ф.н., доц.



М.Р.Ли